2024-yil – Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili

O‘ZBEKISTON BUNYODKORI

IJTIMOIY-IQTISODIY GAZETA

№40-41 (793-794) 2024-yil 17-may, juma

СТРОИТЕЛЬ УЗБЕКИСТАНА

uzbunyodkor | t.me/uzbunyodkor | uzbunyodkor | info@uzbunyodkor.uz | uzbunyodkor.uz

Gazeta 2016-yil 2-avgustdan haftaning seshanba va juma kunlari chiqadi.




*“O‘zbekiston bunyodkori” gazetasi tahririyati 2024-yil mamlakatimiz qurilish va kommunal sohasi uchun kadrlar yetishtiruvchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini keng yoritish, ularda ta’lim olayotgan iste’dodli va iqtidorli yoshlarni kashf etish, ularning erishgan yutuqlarini keng jamotchilikka, tengqurlariga ibrat sifatida targ‘ib etib kelmoqda.*

*Gazetaning mazkur sonida Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti faoliyati, u yerda talabalarning bilim olishlari uchun yaratilgan imkoniyatlar hamda yosh pedagog kadrlarning o‘z kasbiy ko‘nikmalarini mustahkamlashlari, ilmiy tadqiqot bilan shug‘ullanishlari uchun yaratilgan sharoit va imkoniyatlar bilan batafsil tanishishingiz mumkin.*

# “Institutimizda Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari tahsil olmoqda”

**So‘nggi yillarda respublikamizda ta’lim sohasiga, jumladan, oliy ta’lim yo‘nalishiga bo‘lgan e’tibor yanada ortdi. Birgina Andijon viloyatining o‘zida 7 ta institut va universitet faoliyati tashkil etilgani bunga misoldir. Bu ham bo‘lsa, mamlakatimizda yosh avlodning sifatli ta’lim olishi, yetuk kadr bo‘lib kamol topishi uchun yaratilgan imkoniyatlar ifodasidir. Tashkil topganiga atigi to‘rt yil bo‘lgan Andijon iqtisodiyot va qurilish institutida ham bu borada yetarli sharoitlar mavjud.**

**Institut rektori, iqtisod fanlari doktori (DSc), dotsent Nozimjon TO‘YCHIBOYEV bilan shu haqda suhbatlashdik.**



**– Nozimjon Soliyevich, yurtimizda qurilish yo‘nalishida oliy ta’limni tashkil etishga nima turtki bo‘lgan?**

– Avvalo, mamlakatda oliy ta’lim muassasalari soni qancha ko‘p bo‘lsa, ta’lim sifati shuncha yaxshi bo‘ladi. Sababi, erkin raqobat mavjud joyda, tabiiyki, taraqqiyot yuzaga keladi. Yangi ta’lim muassasalari eng avvalo, davr talabi bilan bog‘liq. Misol uchun, bugun respublikamizning barcha hududlari, jumladan, Andijon viloyati haqiqiy qurilish maydoniga aylangan. Chekka mahallalardan tortib, viloyat markazigacha keng ko‘lamdagi bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Birgina “Yangi Andijon” shaharchasining o‘zi 4 gektar maydonni qamrab olgan. 10 yillik yirik loyihaning birinchi bosqichida 121 ming aholi uchun ko‘p qavatli turar joy binolari, ijtimoiy soha, savdo va xizmat ko‘rsatish ob’yektlari, shuningdek, kichik sanoat zonasi barpo etiladi. Bularning barchasi qurilish sohasida yetuk bilimga ega mutaxassislarga ehtiyojni yanada oshirmoqda. Shu bois, 2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan, Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti tashkil etildi.

Bu nafaqat mamlakatimiz, balki, qo‘shni davlatlar uchun ham manafaatli bo‘ldi. Oddiy misol, Xonobod shahrida bo‘lib o‘tgan ilmiy-amaliy anjumanni olaylik. “O‘zbekistonda tadbirkorlik muhitini rivojlantirish va investitsion jozibadorlikni oshirish yo‘llari” mavzusida tashkil etilgan ushbu anjumanda respublikamiz olimlari bilan bir qatorda Qirg‘iziston va turkiyalik hamkasblarimiz ham ishtirok etishdi. Ular bilan hamkorlikda respublikamizdagi investitsion muhit, uning jozibadorligini oshirishda xorijiy tajribalarni qo‘llash imkoniyatlari xususida fikrlar almashildi. Bu esa nafaqat o‘zbekistonlik, balki, xorijlik mutaxassislar uchun ham katta tajriba maktabi vazifasini o‘tadi.

“Kreativ ta’lim va innovatsiyalar – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining asosi” shiori ostidagi “InnoWeek – 2023” innovatsion g‘oyalar haftaligida esa viloyatdagi oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, yosh olimlar, izlanuvchilar o‘zlarining innovatsion loyihalari bilan ishtirok etishdi. Xususan, bizning institut tomonidan ham o‘nlab loyihalar namoyish etildi. Ushbu haftalikning ahamiyatli jihati shundaki, u viloyatdagi 4 ming nafardan ziyod yoshlarni qamrab oldi. Natijada 100 ga yaqin ishlanmalar, ixtirolar namoyish etildi. Yakunda esa 20 dan ortiq ixtirolarga 500 mln so‘mdan ziyod mablag‘ yo‘naltirildi. Bu xayrli tashabbusda institutimiz vakillarining faol ishtiroki biz uchun quvonarli bo‘libgina qolmasdan, talabalarimizning kelgusi faoliyatini tashkillashtirishda ham muhim ahamiyatga ega. Bularning barchasi institut tashkil etilishi tufayli erishilgan ijobiy natijalardir.

▶ 2-бет

## ANDIJON IQTISODIYOT VA QURILISH INSTITUTIDA

**2 ta fakultet:**
- Arxitektura va qurilish fakulteti
- Iqtisodiyot fakulteti

**5 ta kafedra:**
- Qurilish muhandisligi kafedrasi
- Arxitektura va qurilish kafedrasi
- Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi
- Buxgalteriya hisobi va bank ishi kafedrasi
- O‘zbek tili va ijtimoiy fanlar kafedrasi

**7 ta ta’lim yo‘nalishi:**
- **60310106** Iqtisodiyot: tarmoqlar va sohalar bo‘yicha
- **60410500** Bank ishi va auditi
- **60410103** Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha)
- **60730100** Arxitektura (turlari bo‘yicha)
- **60730303** Qurilish muhandisligi: bino va inshootlar qurilishi
- **60730305** Qurilish muhandisligi: qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish
- **60730902** Gidrotexnika qurilishi (turlari bo‘yicha)

O‘ZBEKISTON BUNYODKORI
СТРОИТЕЛЬ УЗБЕКИСТАНА
№40-41 (793-794) 2024-yil 17-may

◀1-бет

# “Institutimizda Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari tahsil olmoqda”

**– Tan olish kerak, bugun respublikamizdagi qurilish obyektlarida xorijlik mutaxassislar tajribasidan keng foydalanilmoqda. Bu yaxshi, albatta. Biroq milliy kadrlarni tayyorlash, haqiqatdan, bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bois, ushbu institutning tashkil etilishi ayni muddao bo‘ldi. Institutda talabalar uchun qanday sharoitlar yaratilgan?**

– Institutimizda ikkita fakultet, 5 ta kafedra mavjud bo‘lib, yigit-qizlar yettita yo‘nalish bo‘yicha sifatli ta’lim olishmoqda. Ularga 112 nafar pedagog ta’lim bermoqda. 2 273 nafar talaba iqtisodiyot, buxgalteriya, bank ishi kabi sohalar bilan bir qatorda arxitektura, qurilish muhandisligi, gidrotexnika qurilishi yo‘nalishlarida ham tahsil olishyapti. Ularning kelgusida bino va inshootlarni qurish, qurilish materiallari, buyumlari va konstruktsiyalarini ishlab chiqarish kabi sohalarda yetuk mutaxassis bo‘lib kamol topishlari uchun barcha sharoit yaratilgan. Zamonaviy o‘quv korpusi, laboratoriya binosi, sport inshooti ularning xizmatida. Har bir talaba o‘zi tanlagan yo‘nalish bo‘yicha qo‘shimcha ma’lumot olishi uchun kutubxonada 15 ming dona bosma va elektron qo‘llanmalar, maxsus dasturlangan yuzlab kompyuter jamlanmalari mavjud.

Institutimiz talabalari mavjud sharoitlardan unumli foydalangan holda fan olimpiadalari va festivallarda faol ishtirok etib kelishmoqda. 2023-2024-o‘quv yilining shu davriga qadar 85 nafar talaba viloyat hamda respublika miqyosidagi turli tanlovlarda ishtirok etib, faxrli o‘rinlarni egallagani bunga misoldir.

Ma’lumki, har bir institutda ilmiy laboratoriyalarning mavjudligi talabalarning o‘z yo‘nalishlaridagi bilimlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bois, institutimiz “RICHMIR” MChJ bilan hamkorlikda ilmiy-o‘quv laboratoriyasini tashkil etgan. Mazkur sinov laboratoriyasi “O‘zbekiston akkreditatsiya markazi” davlat unitar korxonasi tomonidan tasdiqlangan guvohnoma orqali xizmat ko‘rsatadi. U institutdagi arxitektura va qurilish, qurilish muhandisligi, gidrotexnika ta’lim yo‘nalishidagi talabalar va qurilish sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan professor-o‘qituvchilar uchun o‘quv mashg‘ulotlari hamda tadqiqot natijalarini sinovdan o‘tkazishga xizmat qiladi. Bu yerda hozirda 24 nomdagi 500 mln so‘m qiymatdagi uskuna va jihozlar mavjud. Ular orqali qurilish materiallarini sinovdan o‘tkazish va xulosa berish ishlari amalga oshirib kelinmoqda.



Talabalar uchun yaratilgan sharoitlar haqida fikr yuritilganida, mavjud yotoqxona haqida ham gapirish joizdir. Zero, bo‘lg‘usi kasb egalarining asosiy vaqti mana shu manzilda o‘tadi. Shu bois, institutimizda 400 o‘rinli yangi yotoqxona binosi qurib, foydalanishga topshirilgan. Bu yerda dam olish xonasi, fitnes klub, oshxona, kir yuvish xonalari, kutubxona kabi kundalik ehtiyojni qondiruvchi qulayliklar yaratilgan. Talabalarimiz o‘qishdan keyingi vaqtlarini mazmunli va maroqli o‘tkazishlari uchun barcha sharoit mavjud.

**– Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimida milliy ta’lim uslubini jahonning rivojlangan tajribalari asosida shakllantirishga bo‘lgan e’tibor yildan-yilga ortib bormoqda. Siz rahbarlik qilayotgan institutda bu borada qanday ishlar yo‘lga qo‘yilgan?**

– Darhaqiqat, har qanday soha sinovdan o‘tgan va o‘zini oqlagan tajribalar asosida rivojlanadi. Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimi jahon talablariga mos ravishda faoliyat olib borishi uchun xalqaro hamkorlikning ahamiyati juda katta. Shu bois, institutimiz tomonidan bir qancha davlatlar oliy ta’lim muassasalari bilan o‘zaro kelishuv shartnomalari imzolangan. Tomsk davlat arxitektura-qurilish universiteti, O‘sh davlat universiteti, Ozarbayjon davlat iqtisodiyot universiteti, Moldova texnika universiteti, Sank-Peterburg davlat iqtisodiyot universiteti, Sank-Peterburg aerokosmik asboblar yasash universiteti, Portugaliyaning Viano do-Kastelo politexnika institutlari shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, Hindistonning Shrinagar milliy texnologiyalar instituti bilan tuzilgan hamkorlik memorandumiga ko‘ra, talaba va o‘qituvchilarning o‘zaro tajriba almashishlarini yo‘lga qo‘yish, ilmiy-amaliy hamkorlikni rivojlantirish masalalari yuzasidan kelishib olindi. Bhagwant universiteti bilan kelishuvga asosan esa tadqiqot va ta’lim dasturlari bo‘yicha ma’lumot almashish, o‘quv materiallari hamda boshqa qo‘llanmalarni tayyorlashda har ikki davlat olimlarining ishtirokini ta’minlash yuzasidan hamkorlik aloqalarini rivojlantirish bo‘yicha aniq rejalar ishlab chiqildi. GD GEONKA universiteti bilan bo‘lib o‘tgan muzokaralar natijasiga ko‘ra, kelgusida arxitektura sohasiga doir ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar, tadqiqot va taqdimotlarni birgalikda tashkil etishga kelishib olindi.

Umuman olganda, Hindistonning o‘nlab oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorligimiz manfaatli bo‘lmoqda. Qurilish yo‘nalishidagi barcha jihatlarni o‘zida qamrab olgan kelishuvlar professor-o‘qituvchilarimiz malakasini oshirish, talabalarimizga jahon talablariga mos ta’lim berish bilan bir qatorda institutimiz reytingini oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy hamkorlik aloqalarimiz qisqa muddatlarda o‘zining ijobiy natijasini bera boshladi. Masalan, Samarqand shahrida bo‘lib o‘tgan “O‘zbekiston-Turkich ta’lim forumi”da hamkorlik aloqalarini o‘rnatish imkoniyatlari kengaydi. Qolaversa, talabalar almashinuvi dasturlari, qo‘shma ilmiy loyihalar yuzasidan aloqalarni shakllantirish borasida ijobiy natijalarga erishdik. Shu bilan birga, Turkiyaning 3 ta oliy ta’lim muassasasi bilan tuzilgan hamkorlik kelishuvlari ham institutimiz manfaatiga xizmat qiladi, degan umiddaman.

**– Siz yuqorida Andijon viloyati haqiqiy bunyodkorlik maydoniga aylandi, deya ta’rif berdingiz. Bunda talabalarning ishtiroki qanday bo‘lmoqda?**

– Aytish joiz, qurilish maydonlari talabalar uchun haqiqiy amaliyot o‘tashga ixtisoslashgan tajriba maktabi vazifasini o‘tamoqda. Yuqorida aytib o‘tganim – “Yangi Andijon” shaharchasi bu borada katta imkoniyat eshiklarini ochmoqda. Talabalarimiz bu yerda qurilishga oid nazariy bilimlarini amaliyot bilan mustahkamlabgina qolmasdan, xorijiy mutaxassislar tajribasini ham ommalashtiryaptilar. Jumladan, shu kungacha ko‘p qavatli turar joylar, ijtimoiy obyekt binolari, kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etishda mahalliy va jahon tajribasini uyg‘unlashtirish bo‘yicha katta saboq olishdi. Bu ularning soha haqidagi tushunchalarini yanada kengaytirib, bilim saviyasini mustahkamladi. Shu bilan birga, ularning har tomonlama qulay va zamonaviy talablarga mos qurilish ob’yektlarini ishlab chiqish bo‘yicha izlanishlarini takomillashtiryapti.

**– Institutda o‘quv jarayoni bilan ishlab chiqarishni integratsiya qilish borasida qanday tadbirlar olib borilmoqda?**

– Joriy yilning 5-fevral kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2024-yilda ijtimoiy sohalarda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar yuzasidan o‘tkazgan videoselektor yig‘ilishida **“Oliygohlarni ish beruvchilar bilan uzviy bog‘laydigan tizim yaratiladi, ish beruvchilar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish zarur”**, deb ta’kidladi. Prezident topshirig‘idan kelib chiqib, ta’lim jarayonlari bilan ishlab chiqarishni integratsiya qilish maqasadida institutimiz hamda ish beruvchilar o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Ishlab chiqarish korxonalarida institut kafedralarining filiallarini tashkil etyapmiz. Hozirda qurilish muhandisligi kafedrasining filiallari “Andijonfuqaroloyiha” MChJ loyiha tashkilotida hamda “Yangi Andijon” direksiyasida tashkil etildi.

Bu filiallarda talabalar bevosita ishlab chiqaruvchilar bilan o‘zlarining nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llab ko‘radilar. Ishlar chiqaruvchi korxonalar xodimlari talabalarni amaliyotdagi eng so‘nggi yangiliklar bilan tanishtirib boradilar. Shuningdek, ishlab chiqarishdagi mavjud muammolar, fanda yana qanday muammolar borligi va ularga qanday yechimlar kutilayotgani to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham berib boriladi. Bundan tashqari, ishlab chiqaruvchi va xizmat ko‘rsatuvchi korxona-tashkilotlar bilan sohada uzoq yillik tajribaga ega yetuk mutaxassislarni jalb qilib, muammoli mavzular bo‘yicha ochiq darslar tashkil etyapmiz. Soha mutaxassislari bevosita o‘zlari ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda ishtirok etib, bilim va tajribalar bilan o‘rtoqlashayotgani ham yaxshi samara beryapti.

Bir so‘z bilan aytganda, institutimiz mamlakatimizning bugungi va ertangi kun kasb egalarini tayyorlash maqsadida faoliyat olib boruvchi katta ilm maskaniga aylanib bormoqda. Ularga qanchalik puxta va yuksak bilim berayotganimiz esa kelgusida qurilajak binolar sifatida namoyon bo‘ladi. Shuni unutmaslik kerakki, biz qurilish sohasi xodimlarinigina emas, balki, Yangi O‘zbekiston bunyokorlarini ham tarbiyalamoqdamiz.

**– Mazmunli suhbatingiz uchun rahmat.**

# Maqsadimiz – ilmiy salohiyatli kadrlar tayyorlash



**Anvar ZAYNABIDDINOV,**
Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, DSc, professor.

**Institutimizda 18 nafar ilmiy darajaga ega professor-o‘qituvchilar faoliyat yuritmoqda. Institut yangi tashkil etilganida faqat bakalavriatura bo‘yicha qabul qilingan bo‘lsa, 2024-yildan 08.00.02 – makroiqtisodiyot ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktorantura ochish ishlari nihoyasiga yetkazildi. 2024/2025-o‘quv yilida mazkur ixtisoslik bo‘yicha 5 nafar dastlabki qabulni amalga oshirish mo‘ljallangan.**

Tashkil etilganidan buyon kadrlar salohiyatini oshirish va ilmiy darajali mutaxassislarni yetishtirish maqsadida institut professor-o‘qituvchilaridan 3 nafari Andijon davlat universiteti, Toshkent moliya instituti va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi qoshidagi Umumiy va noorganik kimyo institutiga maqsadli doktoranturaga yuborildi. 2021-2023-yillar mobaynida 4 nafar ilmiy izlanuvchi tomonidan dissertatsiya himoyalari amalga oshirilgan. 2024-yilda 6 nafar professor-o‘qituvchi falsafa doktori (PhD) darajasini olish uchun dissertatsiyasini himoya qilishi kutilmoqda.

Ta’lim muassasamiz ilmiy va o‘quv faoliyatida respublikamizdagi oliy ta’lim muassasalari bilan bir qatorda xorijiy oliy ta’lim muassasalari bilan ham hamkorlik munosabatlarini o‘rnatgan. Xususan, O‘sh davlat universiteti (Qirg‘iziston), B. Sidikov nomidagi Qirg‘iz-o‘zbek xalqaro universiteti (Qirg‘iziston), Ozarbayjon davlat iqtisodiyot universiteti (Ozarbayjon), Bxagvant universiteti (Hindiston), Kukun metallurgiyasi va yangi metallar xalqaro ilg‘or tadqiqotlar markazi (Hindiston), Chandragupta menejment instituti (Patna, Hindiston), Axborot texnologiyalari va menejment instituti (Hindiston), Shrinagar Milliy texnologiyalar instituti (Hindiston), Moldova texnika universiteti (Moldova), Budapesht Metropoliten Universiteti (Vengriya), Milton Fridman Universiteti (Vengriya), Debretsen Universiteti (Vengriya), Sopron universiteti (Vengriya), Karabuk universiteti (Turkiya), Tomsk davlat arxitektura-qurilish universiteti (Rossiya), Portugaliya texnologiyalar instituti (Portugaliya), Shahrood texnologiyalar instituti (Eron), M. Avezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston davlat universiteti (Qozog‘iston) bilan o‘zaro anglashuv memorandumlari tuzilgan.

Ushbu memorandumlar doirasida 2023-yili institut professor-o‘qituvchilaridan 1 nafari Karabuk universiteti (Turkiya), 3 nafari Sopron universiteti (Vengriya), 6 nafari (M. Avezov nomidagi Janubiy-Qozog‘iston universitetlariga (Qozog‘iston) xorijiy stajirovkalarga yuborildi. 2024-yilda institut yetakchi professor-o‘qituvchilarini xorijiy tajriba almashish maqsadida yana bir qator TOP-1000 ro‘yxatiga kiruvchi oliy ta’lim muassasalariga yuborish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda.

Institutda 1 ta o‘quv-ilmiy laboratoriya mavjud bo‘lib, arxitektura va qurilish hamda qurilish muhandisligi kafedralari o‘quv jarayonlarida undan muntazam foydalanib kelmoqda. Laboratoriya xonalarini jihozlash uchun 500 mln so‘m mablag‘ sarflangan bo‘lib, “RICHMIR” mas’uliyati cheklangan jamiyati bilan hamkorlikda tashkil etilgan. Unda 24 nomdagi uskuna va jihozlar mavjud. Shuningdek, institutimiz tomonidan 2024-2026-yillarda 3 ta ilmiy-tadqiqot laboratoriyasini tashkil etish rejalashtirilgan. Tashkil etilgan biznes-inkubatsiya markazida tadqiqotchi va talabalarga ilmiy maslahat, tavsiya va takliflar ishlab chiqilmoqda. Hozirda mazkur markazda buxgalteriya hisobi va tahlil bo‘yicha amaliy va konsalting xizmatlari ham yo‘lga qo‘yilgan.

Yaratilgan imkoniyatlar bugun o‘z samarasini bermoqda. O‘tgan yillarda Web of Science va Scopus xalqaro ma’lumotlar bazalaridagi jurnallarda institut xodimlarining 12 ta maqolasi, xorijiy jurnallarda 30 dan ortiq maqolasi chop etilgan. 2021-yilda 1 ta ixtiro uchun (IAP) patent, 2 ta elektron ma’lumotlar bazalari uchun guvohnoma, 2022-yilda 1 ta ixtiro uchun (IAP) patent, 7 ta elektron ma’lumotlar bazalari uchun guvohnoma, 2023-yilda 5 ta elektron ma’lumotlar bazalari uchun guvohnoma olingan. 2024-yilda esa 1 ta patent va 8 ta guvohnoma olish maqsad qilingan.

Institutda iqtidorli talabalar bilan ishlash va ularni ilmiy faoliyatga jalb etish yuzasidan alohida tizim ishlab chiqilgan. Hozirda Iqtidorli yoshlar seleksiyasini ta’minlash va ular bilan ishlash bo‘yicha 78 nafar bakalavriat talabalari institut rahbar xodimlari va malakali mutaxassislarga ustoz-shogird tizimi asosida biriktirilgan. Buning natijasida 2022-2023-yillar davomida institut talabalaridan 2 nafari Islom Karimov nomidagi, 1 nafari Beruniy nomidagi davlat stipendiyasi va 1 nafari O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi sohibi bo‘ldi. 3 nafar talaba 2023-yilda Jizzax politexnika institutida o‘tkazilgan “Ilm qaldirg‘ochlari” ilmiy-amaliy tanlovi, 5 nafar talaba “InnoWeek-2023” innovatsion g‘oyalar haftaligi doirasida o‘z ilmiy va startap loyihalari bilan ishtirok etib, alohida e’tirofga sazovor bo‘ldi.

Institut tomonidan ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida ham loyihalar amalga oshirilmoqda. Ilmiy tadqiqot ishlarini ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan holda olib borish maqsadida 50 dan ortiq iqtisodiyot va qurilish sohasidagi yirik korxona va tashkilotlar bilan hamkorlik ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, viloyatdagi davlat idoralari, yetakchi bank va moliyaviy tashkilotlar, qurilish tashkilotlari bilan ilmiy tadqiqot va talabalar ishlab chiqarish amaliyoti bo‘yicha hamkorlik o‘rnatilgan.

Hozirda Eron Respublikasi bilan hamkorlikda xalqaro loyiha bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. “Birgalikda yetishtirilayotgan ekinlarni sug‘orish texnikasi va usullari” mavzusidagi loyihadan ko‘zlangan maqsad – suv tanqis va cho‘llashgan zonalarda mahsulot yetishtirishni yo‘lga qo‘yishdan iborat. Loyiha asosida Eronning Shaxrood texnologiyalar instituti bilan tuzilgan hamkorlik asosida tajriba almashish va talabalar almashinuvini amalga oshirish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, 2024-yilda Rossiya Federatsiyasining Tomsk davlat arxitektura-qurilish universiteti bilan hamkorlikda qurilish sohasida ilmiy dasturlar va ilmiy-amaliy loyihalarni birgalikda amalga oshirishga kelishilgan.

# Yoshlar kelajagiga mas’ulmiz!

**Ilhomjon ERGASHYEV,**
Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti birinchi prorektori.



**Mamlakatimiz aholisining 30 foizini 14 dan 30 yoshgacha bo‘lgan yigit-qizlar tashkil etadi. Ularning ta’lim olishi, kasb-hunar egallashi uchun keng sharoit yaratilgan. Shu bilan birga, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish masalasi ham dolzarb hisoblanadi. Yoshlar qanchalik ma’naviy barkamol bo‘lsa, turli yot illatlarga qarshi immuniteti ham shunchalik kuchli bo‘ladi.**

Ma’lumki, davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha beshta muhim tashabbusni ilgari surgan edi. Ushbu muhim tashabbus doirasida Andijon iqtisodiyot va qurilish institutida ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, birinchi tashabbus – yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr kabi san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste’dodini yuzaga chiqarish maqsadida institutda “Vatan, madhingni kuylayman” mavzusida qo‘shiqlar tanlovini tashkil qildik.

Ikkinchi tashabbus – yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratishga yo‘naltirilgan. Buning amaldagi ifodasi sifatida institut miqyosida “Rektor kubogi” uchun o‘tkazilayotgan sport musoboqalarini aytish mumkin. To‘rtinchi tashabbus – yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan. Mazkur tashabbusning amaldagi ifodasi sifatida institutda “Kitobxon yoshlar” klubi muntazam faoliyat olib boradi. Ushbu klub a’zolari tomonidan har oyda bir yoki kitob hajmiga qarab ikkita kitob yuzasidan debat, “Zukko kitobxon” musobaqalari o‘tkaziladi. Talabalar o‘zlari o‘qigan kitob haqida qizg‘in savol-javoblar o‘tkazib, musobaqa g‘oliblari institut rektori tomonidan taqdirlanib kelinmoqda.

Bundan tashqari, talabalar turar joyidagi shart-sharoitlar ham havas qilsa arziydi. 2023-yil DXSh asosida qurilib, foydalanishga topshirilgan talabalar turar joyi zamon talablariga javob beruvchi eng so‘nggi rusumda jihozlangani bilan yigit-qizlarni quvontirmoqda. 560 o‘rinli yotoqxonada talabalar bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi uchun ham alohida sharoitlar mavjud. DXSh asosida yangi qurilayotgan 600 o‘rinli talabalar turar joyi ham 2024-yilning 1-sentyabrida foydalanishga topshirilishi rejalashtirilmoqda. Hozirda qurilish ishlari jadal sur’atda olib borilmoqda.

Talabalar iqtidorini yanada yuzaga chiqarishda institut yoshlar ittifoqining o‘rni beqiyos. Har bir yo‘nalishda peshqadam bo‘lgan talabalardan bir qanchasi tanlab olinib, koordinatorlikka saylanadi va ular institut yoshlar yetakchisi bilan ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy masalalarda faol ishtirok etib kelmoqda.

Shuni alohida qayd etib o‘tish joizki, har qanday jamiyatning rivoji unda ayollarga berilayotgan e’tibor va ehtirom natijasidir. “Ona beshikni, beshik bolani, bola dunyoni tebratadi” deydi dono xalqimiz. Demak, dunyo tamaddunining asosida ayol turibdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti xotin-qizlari, ayol professor-o‘qituvchilari va ishchi-xodimlar ishtirokida sport-sog‘lomlashtirish tadbirlari o‘tkazilib kelinmoqda.

Bundan tashqari, institutda ilmiy darajali ayol professor-o‘qituvchilar sonini oshirish, ilmiy ish bilan shug‘ullanayotgan ayol professor o‘qituvchilarga alohida shart-sharoit yaratish va ularni qo‘llab-quvvatlash masalasi bugungi kunning dolzarb masalasidir. Uy-ro‘zg‘or, oila, farzand tarbiyasidan ortib ilmiy ishni ham parallel olib ketayotgan ayollarimizning jasorati tahsinga sazovordir. Ushbu yaratilgan sharoitlardan unumli foydalanayotgan institutimizning o‘nlab ayol professor o‘qituvchilari jadallik bilan dissertatsiyalarini tugatib, himoyaga shay turishibdi.

Ilmiy faoliyat haqida so‘z ketganda institutning ilmiy salohiyati haqida ham aytib o‘tsak. Institut ilmiy salohiyati 26,6 foizni tashkil qiladi. 2024-yil oxiriga borib 30 foizni tashkil qilishi kutilmoqda. Har bir yetakchi professor-o‘qituvchi iqtidorli talabalar bilan ustoz-shogird an’analari asosida faoliyat olib bormoqda. Xususan, institutning bir nafar 4-bosqich talabasi Prezident, yana bir nafar 4-bosqich talabasi Beruniy, bir nafar 3-bosqich talabasi I. Karimov nomidagi Davlat stipendiyalarining sohibiga aylanishdi.

Institutda ta’lim jarayonlarini boshqarish maqsadida “HEMIS” axborot tizimi joriy etilgan bo‘lib, unga oliy ta’lim muassasasida faoliyat olib borayotgan jami 122 nafar professor-o‘qituvchilar (82 nafar asosiy, 10 nafar tashqi o‘rindosh, 22 nafar ichki qo‘shimcha 8 nafar ichki asosiy), 70 nafar ma’muriyat va texnik xodimlar, 2 178 nafar tahsil olayotgan talabalarning ma’lumotlari to‘liq shakllantirilgan va ular “HEMIS” axborot tizimidagi ma’lumotlar bazasiga kiritilgan. Institutning o‘quv faoliyati raqamlashtirilgan holatda amalga oshirilayotgan bo‘lib, ularning nazorati institut ma’muriyati va Raqamli ta’lim texnologiyalari markazi tomonidan olib borilmoqda.

Ma’lumot almashish va hamkorlik aloqalarini o‘rnatish maqsadida institutning rasmiy veb-sayti https://eduaiqi.uz/ domenida yaratilgan bo‘lib, “AHOST ” serverida 2 Gb joy sotib olingan. Rasmiy veb-saytda institut faoliyatiga oid ma’lumotlar, yangiliklar, e’lonlar, hisobotlar va boshqa zaruriy axborotlar berib borilmoqda. Qolaversa, xodimlar va talabalarning ish vaqtida binoga kirishi va chiqishi, shuningdek, Oliy ta’lim muassasasi hududida bo‘lgan vaqtini nazorat qilish uchun “Hikvision Face ID DS-K1T342EX” qurilmasi o‘rnatilgan bo‘lib, bugungi kunga qadar 181 nafar xodim bazasi shakllantirilgan.

Ta’kidlash joizki, institutda sifatli ta’limni tashkil etish ijrosi asosida 39 ta o‘quv auditoriyasida masofaviy monitoringni olib borish, dars tahlillarini o‘tkazish va tezkor ma’lumotlarni olish jarayonini raqamlashtirish maqsadida kuzatuv kameralari o‘rnatildi. Xususan, institutning o‘quv auditoriyalar, binolarga kirish-chiqish, koridor, ARM, oshxona va talabalar gavjum bo‘lgan hududlarga jami 41 ta kuzatuv kamerasi o‘rnatilib, funksional majburiyati ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tegishli tarkibiy bo‘linmalar uchun masofaviy kuzatish akkauntlari ochilgan.

Bir so‘z bilan aytganda, yuqoridagi kabi sharoit va imkoniyatlarning barchasi yoshlarning to‘laqonli bilim olishi uchun yaratilgan. Zero, biz yurtimiz ertasi bo‘lmish yoshlar kelajagiga mas’ulmiz.




# Bunyodkorlik – Yangi O‘zbekistonimiz yuzi bo‘lsin

**Bekzodbek SOBIROV,** Arxitektura va qurilish fakulteti dekani, PhD.

**Arxitektura va qurilish fakulteti 2023-yil 4-avgustida tashkil etilgan. Fakultetda arxitektura, qurilish muhandisligi: bino va inshootlar qurilishi, qurilish muhandisligi: qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish hamda gidrotexnika qurilishi yo‘nalishida 1021 nafar talaba tahsil olmoqda.**



Fakultetda arxitektura va qurilish hamda qurilish muhandisligi kafedralari faoliyat yuritadi. Arxitektura va qurilish kafedrasida 2 nafar PhD, 1 nafar dotsent va 19 nafar asosiy, 1 nafar ichki o‘rindosh professor-o‘qituvchi, qurilish muhandisligi kafedrasida esa asosiy shtatda 1 nafar PhD, 1 nafar dotsent, jami 19 nafar professor-o‘qituvchi, ichki o‘rindoshlikda 3 nafar dotsent, 3 nafar professor-o‘qituvchi yoshlarga bilim berib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish uchun 5 ta muhim tashabbus bo‘yicha bir qator ishlar tashkil etilgan. Xususan, yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirish, iste’dodini yuzaga chiqarishga hissa qo‘shish maqsadida musiqa va san’at, iqtidorli rassomlar hamda quvnoqlar va zukkolar guruhlari tashkil qilingan. Shuningdek, yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sportga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirish maqsadida voleybol, mini futbol, stol tennisi, shaxmat turlari bo‘yicha terma jamoalar tuzilgan. Yoshlar o‘rtasida AKT hamda internetdan samarali foydalanishni tashkil etish yuzasidan 15 nafar talabadan iborat to‘garak faoliyati ham yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilishga mo‘ljallangan kitobxonlar guruhi, xotin-qizlarni ish bilan ta’minlash masalalari borasida tashkil qilingan to‘garaklar ham faoliyat yuritmoqda.

Bundan tashqari, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 9-avgustdagi №351-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida, fakultetimizga biriktirilgan kafedralar tomonidan muntazam tarzda talaba-yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish yuzasidan turli mavzudagi tadbir va ko‘ngilochar o‘yinlar ham tez-tez o‘tkazib turiladi.

Ta’kidlash lozimki, yaratilgan sharoit va keng imkoniyatlar tufayli talabalarimiz turli sohalarda yutuqlarni qo‘lga kiritib kelyapti. Xususan, bino-inshootlar qurilishi yo‘nalishida tahsil oluvchi Alimardon Zokirjonov Beruniy nomidagi davlat stipendiyasiga sazovor bo‘ldi, “Vatan, madhing kuylayman” nomli qo‘shiqlar tanlovida Ahrorbek Sodiqov 1-o‘rinni qo‘lga kiritdi. Ilmiy va innovatsion g‘oyalar loyihalarini saralab olish hamda yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “TechnoWays” texnologik rivojlanish marafonining institut bosqichida 3-bosqich talabasi Muhammadjon Hakimov 1-o‘rin, 4-bosqich talabasi Sardorbek Abdug‘aniyev esa 2-o‘rin sohibi bo‘ldi.

Bir so‘z bilan aytganda, tobora jadallik bilan rivojlanib borayotgan qurilish sohasi tufayli bugun Yangi O‘zbekistonimiz kun sayin ko‘rkam qiyofaga kirmoqda. Biz ta’lim sohasi xodimlari esa bo‘lajak bunyodkorlarga kasb sirlarini o‘rgatish orqali bu jarayonga o‘z hissamizni qo‘shib kelayotganimizdan mamnunmiz.



# Aniq hisob va texnik mustahkamlik – qurilish muhandisligi asosidir

**Baxtiyorjon MIRZAYEV,** Qurilish muhandisligi kafedrasi mudiri.

**Yangi O‘zbekistonning bugungi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini qurilishlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shunday ekan, qurilish ishlarini to‘g‘ri loyihalash, rejalashtirish va qurishda qurilish muhandisligi sohasi muhim o‘rin tutadi.**






Qurilish muhandisligi – binolar va inshootlar, ko‘priklar, yo‘llar, to‘g‘onlar, aeroportlar, suv ta’minoti tizimlari va boshqalarni o‘z ichiga olgan infratuzilma loyihalarini loyihalash, qurish va ta’mirlashga qaratilgan muhim soha kasb. Qurilish muhandisligi jamiyatga foyda keltiradigan xavfsiz, barqaror va samarali tuzilmalar va tizimlarni yaratish uchun ilmiy, matematik va texnik tamoyillarni qo‘llashni o‘z ichiga oladi.

Qurilish muhandisligi kafedrasi 2023-yil sentyabr oyida tashkil etilgan. Kafedra ikkita yo‘nalishni o‘z ichiga oladi: 60730300-qurilish muhandisligi: bino va inshootlar qurilishi, 60730700-qurilish muhandisligi: qurilish materiallari, buyumlari va konstruksiyalarini ishlab chiqarish. Ushbu yo‘nalishlarda 269 nafar kunduzgi, 25 nafar kechki, 66 nafar sirtqi ta’lim shakllari bo‘yicha talabalar tahsil olmoqda. Kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan 53 nafar fandan talabalarga saboq berib kelinmoqda. Professor-o‘qituvchilar G. Qodirova, X. Askarov, M. Askarova va boshqalar muallifligida 7 ta yangi zamonaviy o‘quv qo‘llanma va 11 ta monografiya nashr etildi. Ilmiy faoliyatga oid 3,5 mlrd so‘mlik uchta innovatsion loyiha ishlanmalari amaliyotga tadbiq etildi.

Iqtidorli talabalar kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan tashkil qilingan ilmiy to‘garaklarda ishtrok etib kelmoqda. Bino va inshootlar qurilishi yo‘nalishi IV-kurs talabasi A. Zokirjonov Beruniy nomidagi davlat stipendiyasi sohibi bo‘ldi. Shuningdek, kafedraning barcha professor-o‘qituvchilari xalqaro va respublika jurnallarida ilmiy maqolalar nashr etib, institut nufuzini ko‘tarishga hissa qo‘shib kelmoqda. Kafedra qoshida ilmiy laboratoriya ham tashkil qilingan. O‘quv mashg‘ulotlarini ishlab chiqarish jarayonlari bilan integratsiya qilish maqsadida “Andijonfuqaroloyiha” MCHJda kafedra filiali tashkil etilgan. Talabalarning malakaviy amaliyotlarini olib borish uchun viloyatdagi 10 dan ortiq ishlab chiqarish va loyihalash korxonalari bilan aloqalar o‘rnatilgan.

Bundan tashqari, kafedra professor-o‘qituvchilari viloyatda va institutda tashkil etilayotgan ma’naviy-ma’rifiy, sport va ko‘ngilochar tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqda. Bu borada ayniqsa o‘qituvchilarning o‘zlari talabalarga o‘rnak bo‘lmoqda. Qolaversa, talabalarga o‘qish jarayonlarida ustozlik qilishdan tashqari, darsdan bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishda ham ularga yaqindan yordam va maslahatlar berishmoqda.

# Iqtisodiy taraqqiyot – davlat va jamiyat rivojiga xizmat qiladi

**Aziza MAKSIMOVA,** Iqtisodiyot fakulteti dekani o‘rinbosari.

**Iqtisodiyot fakulteti 2023-yilning sentyabr oyidan boshlab faoliyat yuritib kelmoqda. Unda iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo‘yicha), bank ishi va audit, buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha kadrlar tayyorlanadi. Talabalarga ikkita mutaxassislik – tarmoqlar iqtisodiyoti va buxgalteriya hisobi va bank ishi kafedralari hamda iltimoiy-gumanitar fanlardan o‘zbek tili va ijtimoiy fanlar kafedrasi professor-o‘qituvchilari dars mashg‘ulotlarini olib boradilar. Ushbu kafedralar O‘zbekiston Respublikasi buxgalterlar va auditorlar assotsiatsiyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiton Respublikasi bank va moliya akademiyasi, Makroiqtisodiyot va hududiy tadqiqotlar kabi ilmiy-tadqiqot institutlari bilan o‘zaro hamkorlikda o‘quv va ilmiy ishlarni olib boradilar.**



Fakultet ta’lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini kengaytirish, mustahkamlash hamda bitiruvchilarni maqsadli tayyorlash uchun bir qator ishlab chiqarish korxonalari bilan o‘zaro hamkorlikdagi ishlarni olib boradi. Xususan, Auditorlar palatasi, Andijon viloyati buxgalterlar va auditorlar assotsiatsiyasi, “Freedom finance” MCHJ, “Profi-audit” MCHJ, “Erkin audit XXI” MCHJ, ATB “Ipak yo‘li bank”, “Hamkorbank” CHEIIE, ATIB “Ipoteka-bank”, Mikrokreditbank, viloyat Statistika boshqarmasi, viloyat Savdo-sanoat palatasi, “Everest metal grand” MCHJ, “Sendvich kompozit” MCHJ, “Innologistika” MCHJ, “Zarina star” MCHJ shular jumlasidandir.

Hozirda fakultetimizda 1150 nafar talaba tahsil olmoqda. Professor-o‘qituvchilarning sidqidildan bilim berishi tufayli talabalar turli ko‘rik-tanlovlarda ishtirok etib, faxrli yutuqlarga erishmoqda. Masalan, buxgalteriya hisobi va audit yo‘nalishi 4-kurs talabasi Islomiddin Abdujabborov a’lo baholarga o‘qishi va institut jamoatchilik ishlarida faolligi uchun ushbu o‘quv yilida Prezident stipendiyasiga sazovar bo‘ldi. Buxgalteriya hisobi va audit yo‘nalishining 3-kurs talabasi Ahrorbek Sharobiddinov esa Islom Karimov nomidagi Davlat stipendiyasi sohibi bo‘ldi.

Bundan tashqari, 8 nafar talabamiz 2023-yil 2-dekabr kuni “Tadqiqotchilik va kreativ say-harakatlarni qo‘llaymiz” shiori ostida Samarqandda bo‘lib o‘tgan 8-xalqaro simpoziumida faol ishtirok etdilar. Ularning taqdimotlari a’lo darajada baholandi va munosib taqdirlandi. Institut talabalari o‘rtasida o‘tkazilgan “TexnoWays” texnologik rivojlanish marafonining institut bosqichida iqtidorli talabalarimiz faol qatnashib kelmoqda. Xususan, buxgalteriya hisobi va audit yo‘nalishi 3-kurs talabasi Muhammadqodir Razzaqovning “OTMdalarda masofaviy ta’lim tizimini yaratish” loyihasi katta qiziqish uyg‘otdi.

Shuningdek, fakultetimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning ta’lim olishlari, bandligini ta’minlash, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, turli sohalarda qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha ham chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Fakultetda jami ayol o‘qituvchilar 16 nafarni, talaba qizlar esa 198 nafarni tashkil qiladi. Ular institut miqyosida o‘tkazilgan turli tanlov va musobaqalarda faol ishtirok etib kelishmoqda. Shuningdek, o‘tgan yili O‘qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan fakultetimizning o‘zbek tili va ijtimoiy fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi Feruzaxon Djurayeva viloyat hokimi tomonidan qimmatbaho sovg‘a va faxriy yorliqlar bilan taqdirlandi. Talaba qizlarni ma’naviy-ma’rifiy ishlar va sportga jalb qilish maqsadida ham ko‘plab tanlov va musobaqalar tashkil etilmoqda. Jumladan, bank ishi va audit yo‘nalishi 2-kurs talabasi Zarnigor Latifjonova viloyat OTMlari o‘rtasida o‘tkazilgan shaxmat musobaqasida qatnashib, faxrli 1-o‘rinni egalladi.

Kelgusida ham rejalarimiz bisyor. Xususan, kadrlar iste’molchilari talablari va soha xususiyatlarini inobatga olgan holda, qolaversa, o‘quv jarayoni samaradorligini oshirish maqsadida fakultetimiz tarkibida yangi bo‘limlar tashkil etilishni rejalashtiryapmiz.

O‘ZBEKISTON BUNYODKORI
СТРОИТЕЛЬ УЗБЕКИСТАНА
№40-41 (793-794) 2024-yil 17-may

# Oz fursatda erishilgan muvaffaqiyat

**Shahnoza EGAMBERDIYEVA,**
Arxitektura va qurilish kafedrasi mudiri, texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

**Kafedramiz 2023/2024-o‘quv yilida tashkil etilgan bo‘lib, bugungi kunda ulkan yutuqlarga erishib kelmoqda. Ayni paytda 20 nafar professor-o‘qituvchi o‘z ilmiy faoliyati bilan mashg‘ul. 2023-yilning o‘zida o‘quv-uslubiy, ilmiy-ijodiy, ma’naviy-ma’rifiy, ustoz-shogird yo‘nalishlarida amalga oshirilgan ishlar natijasi bilan faxrlansak, arziydi.**



O‘tgan yilda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan O‘zbekiston va Eron hamkorligida 1,8 milliard qiymatidagi loyiha tanlovi e’lon qilingan edi. Unga kafedramiz tomonidan “Ekinlarni birgalikda yetishtirishda sug‘orish texnika va texnologiyalarini takomillashtirish va yerlarning meliorativ holatini yaxshilash” mavzusida ilmiy-amaliy loyiha taqdim etildi. Hozirda texnik kengashda ko‘rib chiqilmoqda.

Bundan tashqari, 8 600 000 so‘m miqdorida “Andijon fuqaroloyiha”, “Andijon me’morloyiha” va “M Profil” MJCh bilan xo‘jalik shartnomalarini amalga oshirishga muvaffaq bo‘ldik. Hozirga qadar kafedramiz professor-o‘qituvchilarining 2 ta Scopus, 10 ta Impakt faktor jurnalda, xalqaro va respublika jurnal va konferensiyalari to‘plamida 50 dan ortiq maqolasi chop etilgan. Shuningdek, 2 ta darslik va 1 ta o‘quv qo‘llanma hamda 9 ta monografiya nashr etildi. Ularni chop etish uchun ruxsatnomalar olinganligi va 3 ta Dasturiy guvohnomalar mavjudligi ham biz uchun katta yutuq.

Shuningdek, bu yutuqlarning davomi sifatida professor-o‘qituvchi Jasurbek Isakovning bir qancha shogirdlari xorijiy davlatlardagi ilmiy-ijodiy tanlovlarda qatnashib, yuqori natijalarga erishib kelayotganini ham aytishimiz mumkin. Bulardan, arxitektura yo‘nalishi 3-bosqich talabasi Ismoiljon Usmonov, 2-bosqich talabasi Sayidakbar Akramov hamda 1-bosqich talabasi Shavkat Komilov va boshqalar nufuzli tanlovlarda qatnashib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “Vazirlik tizimidagi oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida 2023-yilda o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi” hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasida 2023-yilda xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi” doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash, qurilish sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borayotgan olimlar, mutaxassislar hamda yosh tadqiqotchilarning mavjud muammolar va ularning yechimiga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlari natijalarini muhokama qilish va keng jamoatchilikka yetkazish, fan, ta’lim va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash maqsadida institutimizda bir qator tadbirlar tashkil etilmoqda.

Xususan, 2023-yil 14-dekabr kuni “O‘zbekistonning investitsion muhit jozibadorligi – qurilish taraqqiyotining muhim omili va xorij tajribasidan foydalanish imkoniyatlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi. Ushbu anjumandan ko‘zlangan asosiy maqsad – zamonaviy innovatsiyon g‘oyalar bilan yaqindan tanishish va tajriba almashish, qurilish sohasining yetakchi tadqiqotchilari tomonidan olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari hamda sohaga oid ilmiy izlanishlarni muhokama qilishdan iborat edi. Kafedramiz professor-o‘qituvchilari bu anjumanda ham faol ishtirok etdilar.

Professor-o‘qituvchilarning 2023-2024-yilda nashr etilishi kerak bo‘lgan o‘quv adabiyotlardan bir qanchasi institut kengashida tasdiqlangan. Jumladan, kafedra professor-o‘qituvchisi Ahmadjon Abdurahmonov tomonidan qurilish sohasiga oid o‘qituvchi va talabalar uchun mo‘ljalangan ko‘plab darsliklari nashr etilgan.

Kelajakda ham kafedramiz nufuzini yanada oshirish uchun oldimizga katta maqsadlar qo‘yganmiz. Bu orqali eng avvalo, jamiyatimizga yuksak kadrlar yetishtirib berish hamda yurtimiz qurilish sohasini yanada rivojlantirish ko‘zda tutilgan.

# Hamkorlik yaxshi natija bermoqda

**Bahodir MAMAYEV,**
Tarmoqlar iqtisodiyoti kafedrasi mudiri, i.f.n., dotsent.

**Kafedramiz 2023-yil 4-sentyabrdan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasidan ajralib chiqqan. Hozirda 33 nafar professor-o‘qituvchi talabalarga bilim berib kelmoqda. 2023-2024-o‘quv yili uchun ilmiy salohiyat 24,1 foizni tashkil qiladi.**



Professor-o‘qituvchilarning hozirga qadar qayta tayyorlash va malaka oshirish rejasini bajarganlik holati hamda o‘zlashtirish natijalari ijobiy bo‘lib, joriy yilda ham 4 nafar professor-o‘qituvchining malakasi oshirilishi rejalashtirilgan. Kafedramiz tomonidan ta’lim jarayonini bozor talablariga moslashtirish, ishlab chiqarish bilan uzviyligini ta’minlash maqsadida 2023-2024-o‘quv yilidan boshlab iqtisodiyot yo‘nalishi bo‘yicha bitiruvchi kurs talabalari ilk bor mehnat bozoriga chiqariladi. Hozirda 74 nafar bitiruvchi kurs talabasi 50ga yaqin ish o‘rnini band qilgan.

Kafedrada o‘tiladigan fanlar iqtisodiy mutaxassislik fanlar tizimiga mansub bo‘lib, asosan iqtisodiyot nazariyasi, iqtisodiy ta’limotlar tarixi, jahon iqtisodiyoti, mikroiqtisodiyot, kreativ fikrlash, statistika, global iqtisodiy rivojlanish, marketing, innovatsion menejment, tadbirkorlik asoslari, iqtisodiy siyosatga kirish, raqamli iqtisodiyot, institutsional iqtisodiyot, tadqiqot usullari va ko‘nikmalari, biznesni rejalashtirish, mehnatni ilmiy tashkil etish, iqtisodiy o‘sish, yashil iqtisodiyot, ekonometrika, resurslar iqtisodiyoti kabi fanlar yetuk professor-o‘qituvchilar tomonidan o‘qitilmoqda.

Kafedramiz professor-o‘qituvchilari tomonidan bir qator ta’lim muassasalarida turli tadbirlar tashkil qilish odat tusiga kirgan. Professor-o‘qituvchilar T. Umarov va B. Abdukarimov tomonidan Andijon shahridagi 19-umumta’lim maktabi hamda institut bilan o‘zaro hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha memorandum imzolangan. Ushbu memorandum asosida ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan “Oila, mahalla, maktab, oliy ta’lim muassasasi” hamkorligi yuzasidan yo‘l xaritasi ishlab chiqilgan. O‘qituvchilar M. Maksumov va B. Abdukarimov tomonidan esa maktabning 11-sinf o‘quvchilari bilan “Sog‘ tanda – sog‘lom aql” hamda “Maktab va oliy ta’lim muassasasi integratsiyasi” mavzularida davra suhbatlari o‘tkazildi. Shuningdek, suhbat davomida maktab bitiruvchilariga institut tarixi, ta’lim jarayonlari, yo‘nalishlari haqida ma’lumot berildi.

Professor-o‘qituvchilar O. Mirzayev, B. Abdukarimov, I. Xolmirzayev hamda B. Ergashyev tomonidan Andijon shahridagi 7-umumta’lim maktabiga ham tashrif uyushtirilib, bitiruvchi sinf o‘quvchilari bilan qizg‘in suhbat, savol-javob va davra suhbati o‘tkazildi. Shuningdek, professor-o‘qituvchilar T. Qurbonov va I. Xolmirzayev tomonidan Andijon shahridagi “Hamdo‘stlik” MFYda “Bir ziyoli – bir mahallaga ma’naviy homiy” doirasida o‘smir yigit-qizlar o‘rtasida jinoyatchilikni oldini olish va osoyishtalikni kuchaytirish maqsadida suhbat tashkil qilindi.




# Qizg‘in faoliyat va ulkan yutuqlar

**Abdumuxtor HAKIMOV,** O‘zbek tili va ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri.

**Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti tashkil topgan davrdan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasi ham o‘z faoliyatini olib borgan. 2023-yil 4-sentyabrdan boshlab kafedra O‘zbek tili va ijtimoiy fanlar kafedrasi deb nomlandi va tarkibidan tarmoqlar iqtisodiyoti va buxgalteriya hisobi kafedralari ajralib chiqdi.**





Bugungi kunda kafedrada 23 nafar professor-o‘qituvchi o‘z ilmiy faoliyatini olib bormoqda. Shu jumladan, asosiy shtatdagi professor o‘qituvchilar 16 nafar, ichki o‘rindoshlar 5 nafar, tashqi o‘rindosh sifatida esa 2 nafar professor-o‘qituvchi ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanmoqda. Kafedraning tajribali professor-o‘qituvchilari tomonidan O‘zbekistonning eng yangi tarixi, falsafa, dinshunoslik, xorijiy til, o‘zbek (rus) tili, jismoniy tarbiya va sport, iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar, qurilishda axborot texnologiyalari (Python/Matlab), texnik tizimlarda axborot texnologiyalari, qurilishda qonunchilik, biznes huquqi kabi fanlardan mashg‘ulotlar olib boriladi.

Kafedrada o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha fanlarning namunaviy dasturiga kiritilgan asosiy adabiyotlar, jumladan, darslik, o‘quv qo‘llanmalar va qo‘shimcha adabiyotlar bilan ta’minlanganlik talab darajasida bo‘lib, professor-o‘qituvchilar tomonidan elektron kitoblar majmui ham yaratildi. Hozirgi kunda 2 ta darslik, 5 ta o‘quv qo‘llanma tayyorlanib, Vazirlikning griftlari olindi va nashr etildi. Shu bilan birga, 10 ta monografiya nashrdan chiqqanligini ham alohida e’tirof etishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan 2023-yil 31-oktyabr kuni Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti kengashi tavsiyasiga ko‘ra, Abdumuxtor Hakimov O‘zbekiston tarixi ixtisosligi bo‘yicha dotsent ilmiy unvoni bilan taqdirlandi. Hozirgi kunda Abdumuxtor Hakimov tarix fanlari doktori ixtisosligi bo‘yicha Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasini olish uchun ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Shuningdek, professor-o‘qituvchilaridan Nargiza Mirzayeva, Tursunoy Abdurahimova, Xayitxon Ismoilovaning ilmiy-tadqiqot mavzulari OAK byulletenidan tasdiqlanib, ilmiy ishlar kafedrada dastlabki himoyadan o‘tdi. Murodjon Tashxadjayev, Arabboy Jo‘rayev, Malikaxon Latipjonova, Azizbek Xalisovning ham mavzulari tasdiqlanib, ilmiy tadqiqot jarayonlari boshlangan. Kafedramiz professor-o‘qituvchilarining 2022/2023-o‘quv yilida ham respublika hamda xorijdagi jurnal va anjumanlarda maqola hamda tezislari muntazam nashrdan chiqmoqda.

O‘zbek tili va ijtimoiy fanlar kafedrasi 2023/2024-o‘quv yilida ham yoshlar bilan ishlash, ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy yo‘nalishda reja asosida ish olib bormoqda. Talabalarning iqtidorini yanada rivojlantirish maqsadida “Tarix va hozirgi zamon”, “Sport o‘yinlari”, “Speaking club”, “Kompyuter savodxonligi”, “Русское слово” va “Yosh faylasuflar” to‘garaklari tashkil etilgan.

# Talabalar turar joyi qulay va shinam bo‘lishi kerak

**G‘ulomjon TESHABOYEV,**
institut bosh muhandisi.

**Har bir davlatning kelajagi albatta, yoshlarga, bo‘lg‘usi kadrlar salohiyatiga bog‘liq. Shu bois, yurtimizda talabalarga qulay sharoit yaratish masalasi doimo muhim ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Bu nafaqat ta’lim-tarbiya yo‘nalishida, balki ular uchun qulay o‘qish va yashash sharoitini yaratib berishda ham o‘z aksini topmoqda.**




O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-sentyabrdagi “Respublikada oliy ta’lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 563-sonli qarori bilan talabalar turar joylarini barpo etish belgilangan. Mazkur qaror ijrosi asosida Andijon shahar, Navoiy shox ko‘chasi, 15-“a” uy manzilida joylashgan Andijon iqtisodiyot va qurilish institutida davlat-xususiy sheriklik asosida “Zebuniso House” MCHJ tomonidan 400 o‘rinli talabalar turar joyi qurib bitkazildi.

Ushbu talabalar turar joyini barpo etishga 26 mlrd so‘mdan ziyod, jihozlash uchun esa 4 mlrd so‘mdan ziyod mablag‘ sarflandi. Talabalarga qulay sharoitlar yaratish uchun ikki yarusli kravatlar, stol-stullar, kiyim shikflari, gilamlar, derazalar uchun jalyuzi pardalar, yuvinish xonalari va jihozlari, hojatxonalar, kir yuvish xonalari va jihozlari, oshxona, maishiy xizmat xonalari, kompyuter xizmat ko‘rsatish xonalari, fitnes klub, isitish tizimlari taxt qilindi.

2022-yil so‘nggida foydalanishga topshirilgan ushbu talabalar turar joyi bugungi kunda ham ularga bekamu-ko‘st xizmat qilib kelmoqda.




# Kitob – buyuk kelajak poydevori

**Shahlo ABDURAHMONOVA,** Axborot-resurs markazi rahbari.

**Kitob – inson hayotini yorituvchi mash’al, unga qanot bag‘ishlovchi bir qush. Qushning bir qanoti ilm bo‘lsa, bir qanoti ma’naviyatdir. Kitobning shaxs tarbiyasida, uning dunyoqarashi va ijtimoiy faoliyatida ham nechog‘lik zarur ekanligi barchamizga ma’lum. Kitob o‘qigan inson har jihatdan yetuk, bilimli va salohiyatli, shu bilan birga, kelajakda ham o‘z yo‘li va jamiyatda mavqeyiga ega bo‘ladi. Buyuk shoir va mutaffakkir Alisher Navoiy “Kitob – beminnat ustoz, bilim va ma’naviyatni yuksaltirishning eng asosiy manbayi”, – deb bejiz aytmagan.**





Afsuski, bugungi kunda aksariyat xonadonlarda kitob va kitobxonlik kamayib ketmoqda. Texnika va texnologiyalar asrida siz-u bizga kitob mutolaasi har qachongidan ham zarurroqdir. Atrofimizga qarasak, insonlar oltinga teng vaqtini keraksiz telefon-u kompyuterlar bilan o‘tkazishmoqda. Eng achinarlisi, bunday keraksiz ko‘ngilochar o‘yinlar asosan yoshlarni band qilganidir. Ayni globallashgan va tahlikali zamonda Vatan taqdiri siz-u biz kabi yoshlar qo‘lida ekan, qimmatli vaqtimizni keraksiz narsalar bilan emas, ma’naviyatimzni boyitish bilan o‘tkazaylik. Chunki har bir inson o‘zini va ichki olamini boyitsa, oilalar yaxshilanadi, bu orqali esa butun jamiyat va Vatan taraqqiy etadi.

Shu jumladan, Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti Axborot-resurs markazi ham o‘z kuch va imkoniyatlarni ishga solgan holda yoshlarni badiiy adabiyot hamda kitobxonlikka targ‘ib qilib kelmoqda. Oliygohning Axborot-resurs markazi tomonidan talaba yoshlarga 2 smenali ish faoliyati tashkil etilgan. ARMda talabalarning elektron resurslardan foydalanishi uchun alohida zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlangan xona va yoshlarni dars tayyorlashlari uchun 50 o‘rinli mo‘jazgina zal mavjud. Kompyuterlar “WI-FI” bilan ta’minlangan. Institut hali tashkil etilganiga ko‘p bo‘lmasa ham, ARM fondi 7370 tani tashkil etadi. Ulardan aksariyati badiiy adabiyotlardir.

Shuningdek, institutning professor o‘qituvchilari tomonidan har chorakda darslik va o‘quv-qo‘llanmalar yozilib, ARM fondiga joylashtiriladi. Institut binosi va ARM zalida “Bizning professor o‘qituvchilar va ilm-fan” deb nomlangan burchak tashkil qilingan bo‘lib, barcha yangi yozilib, nashr qilingan kitoblar muntazam joylashtiriladi. Shu bilan birga, ARM rahbari va xodimlar tashabbusi bilan talabalarning tyutorlari bilan birgalikda “Badiiy asar tahlili va men anglagan olam” to‘garagi faoliyat yuritadi. Bunda har oy qaysidir asar tahlili va savol-javob o‘tkaziladi. Bundan tashqari, “Kitobxon talaba”, “Zukko kitobxon”, “Eng faol kitobxon”, “Kitob eng buyuk muallim”, “Eng yaxshi kitobxon talaba” tadbirlari, yangi asarlar ko‘rgazmasi va yarmarkalar ham muntazam o‘tkazilib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, inson hayoti uchun non qanchalik zarur bo‘lsa, kitob va uning mutolaasi ham shunchalik zarurdir. Aynan tarbiyaviy omilning kitobxonlik darajasi bilan bog‘liqligi mutolaa ishining har qanday davrda ham davlat va jamiyat uchun asosiy masala ekanligini anglatadi. Ayni damda insoniyatni virtual olam o‘ziga qul qilayotgan bir davrda bizlarni bu qaramlikdan qutqara oladigan yagona najot – bu albatta, kitobdir.

# Yurtimiz rivojiga o‘z hissamni qo‘shmoqchiman!

**Alimardon ZOKIRJONOV,** Arxitektura va qurilish fakulteti talabasi.

**Institutimizning asosiy vazifasi – iqtisodiyot va qurilish sohasida amaliy ko‘nikmalarga ega, raqobatbardosh, oliy ma’lumotli mutaxassislar va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish hisoblanadi.**



Bugungi kunda Iqtisodiyot fakultetitda iqtisodiyot, buxgalteriya, bank ishi va audit, Qurilish fakultetida esa arxitektura, bino va inshootlar qurilishi, gidrotexnika, qurilish materiallarini ishlab chiqarish va boshqa sohalarda mutaxassislar tayyorlanmoqda. Bizga bilim berayotgan ustozlarning katta tajriba va mahorati tufayli kelgusida har birimiz tanlagan sohamizning malakali mutaxassisi bo‘lish uchun harakat qilyapmiz. Qolaversa, dars jarayonlarining zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil qilinayotgani ham katta ahamiyatga ega.

Bundan tashaqari, institutimizda qurilish materiallari qarshiligini sinovchi laboratoriya ham tashkil etilgan bo‘lib, unda ko‘plab tadqiqot ishlari o‘tkaziladi. Shuningdek, bugungi kunda ta’lim tizimida xalqaro hamkorlik ham dolzarb masala hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda, hozirgi kunda institutimiz Hindistonning Kukun metallurgiya va yangi metallar xalqaro tadqiqotlar hamda Shirinagar milliy texnologiyalar institutlari, Rossiya Federatsiyasining Tomsk arxitektura va qurilish universiteti, Vengriyaning Sapron unversiteti va boshqa xorijiy OTMlari bilan hamkorlik qilib kelmoqda.

Hozirgi kunda men ham ustozlarimdan olgan bilimlarim asosida qurilish materiallari sohasida bir nechta ilmiy tadqiqot ishlarini olib boryapman. Bu yo‘nalishda bir qator muvaffaqiyatlarga ham erishdim. Xususan, 2023-2024 o‘quv yilida Beruniy nomidagi davlat stipendiyasiga sazovor bo‘ldim. Menga berilgan bunday imtiyozdan foydalanib, kelajakda magistratura bosqichida ham o‘qib, yurtimiz qurilish sohasiga yangi texnologiyalarni olib kirmoqchiman. Maqsadim – o‘z bilim va kasbim orqali yangilanayotgan O‘zbekistonimiz rivojiga hissa qo‘shishdir.

# Imkoniyatlardan samarali foydalanaylik!

**Sardorbek ABDUGANIYEV,** Arxitektura va qurilish fakulteti talabasi.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-sonli “Ma’muriy islohotlar doirasida oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash hamda talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlash, ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash darajasi va sifatini oshirish, shuningdek, amaliyot o‘tash davrida qo‘llab-quvvatlash maqsadida institutimizda ko‘plab ishlar amalga oshirilmoqda.**



Bu borada ayniqsa, amaliyot masalasiga katta e’tibor qaratiladi. O‘zim ham “Leyla Building” MChJda ishlab chiqarish amaliyotini o‘tab, ushbu korxonada ish faoliyatimni boshladim. Dastlab, kichik ish boshqaruvchi vazifasida ish boshlagan bo‘lsam, keyin ishlab chiqarish bo‘limi boshlig‘i, hozirgi kunda esa bosh muhandis sifatida ishlab kelmoqdaman. Bunday yutuqlarga erishishimda menga institutda olgan nazariy bilimlarim va ustozlarning tavsiyalari katta yordam berdi. Ishxonam esa ta’lim olishni davom ettirishim uchun sharoit yaratib bergan.

Qolaversa, institutimizda ham talabalar uchun ko‘p imkoniyatlar yaratilgan. Xususan, talaba va magistrlar darsdan bo‘sh vaqtlarida tashkil etilgan laboratoriyada ilmiy izlanishlarini amalga oshirishlari mumkin. Ularga professor-o‘qituvchilar bosh-qosh. Ular qatorida men ham ustozim Axmatjon Abdurahmonov rahbarligida ilmiy izlanish bilan shug‘ullanmoqdaman. Buning natijasida shu kunga qadar metall konstruksiyalari va yog‘och konstruksiyalari fanlaridan uslubiy qo‘llanmalar hamda amaliyot darslarini o‘tash uchun o‘quv qo‘llanma tayorladik. Hozirda ularni nashr etish uchun “GRIF” oldik.

Bundan tashqari, sport va ilmiy tanlovlar ham ko‘plab o‘tkaziladi. Institut bosqichida g‘olib bo‘lgan talabalar viloyat va respublika bosqichlarida ham faxrli o‘rinlarni egallab kelmoqda. Shu tanlovlar tufayli bir qancha talabalar nomdor stipendiyalar, ko‘krak nishonlari va magistraturada o‘qishni davom ettirish uchun grantlar sohibi bo‘lishgan. Izatillo Akromov, Alimardon Zokirjonov, Islomiddin Abdujabborov ana shunday talabalardan hisoblanadi. Ular qatori men ham ilmiy konferensiya va tanlovlarda faol qatnashishga harakat qilaman. Jumladan, institut miqyosida o‘tkazilgan “Yil talabasi”, “Kelajak binolari”, “TechnoWays” tanlovlari g‘olibi bo‘lib, xalqaro “Yosh tatqiqotchi” ilm-fan konferensiyasida qatnashib, ko‘krak nishoni bilan taqdirlandim.

Hozirgi kunda nafaqat bizning institutda, balki yurtimizdagi barcha oliy ta’lim dargohlarida yoshlar uchun keng imkoniyatlar eshigi ochilmoqda. Biz yoshlardan talab qilinadigani esa – ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanib, yurtimiz kelajagini bugungidan-da yuksaklarga ko‘taruvchi kadrlar bo‘lib yetishish xolos.

# Yuksak loyihalar yaratishda davom etamiz!

**Muhammadqodir RAZZAQOV,**
Iqtisodiyot fakulteti talabasi.



**Hammamizga ma’lumki, XXI asr texnologiyalar asri va bu davrda shiddat bilan rivojlanib borayotgan media sohasi ta’limga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.**

Yer yuzining ko‘plab nuqtalarida, xususan, dunyoning “Top” oliy ta’lim muassasalarida ommalashib borayotgan onlayn ta’lim yoki YouTube platformasida kanal yuritish, videoblogging kabilar kelajak sohalariga aylanib ulgurdi. Bu jarayonga tezroq o‘tish kerakligini zamonning o‘zi ko‘rsatib qo‘ydi. 2020-yilda sodir bo‘lgan “Covid-19” pandemiyasi davridagi hodisalar fikrimizning isbotidir.

O‘zbekiston Respublikasidagi oliy ta’lim muassasalari nufuzini oshirish, uni tanitish, obro‘sini yuksaltirish nafaqat bizning institut, balki butun dunyo talabalarinig asosiy maqsadidir. Yoshlar o‘zlari bilgan narsalarni boshqalarga ham ulashishi, fikr almashishi uchun hozirgi media olam qulay muhit hisoblanadi. Ilmiy rahbarim Bahodirjon Qodirov bilan birgalikda “Oliy ta’lim muassasalarda onlayn masofaviy ta’lim tizimini takomillashgan usulda joriy etish” loyihasi ustida ish olib bordik. Institut tarixida birinchi bor bunday taklifni berdik va bu taklifimiz rektor hamda professor-o‘qituvchilar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

Birinchi bor bu tajribani o‘zimizda qo‘llash maqsadida YouTube platformasida “AIQI Masofaviy ta’lim” kanalini ochdik. Bu kanalga sifatli, tushunarli va sodda tilda videodarsliklar hamda ijtimoiy videokontentlar ishlab chiqishni boshladik. Hozirda ko‘ruvlar soni 90 000 dan ortdi, bu faoliyat va o‘sish davom etib kelmoqda. Kelgusida bu loyiha uchun institutimizning yangi qurilayotgan binosidan alohida xona ajratilishi rejalashtirilgan. Loyihani kengaytirish maqsadida o‘z jamoamni tuzib, Yoshlar akademiyasi tomonidan tashkil etilgan startaplar, loyihalar va g‘oyalar tanlovida qatnashdik. Andijon viloyatidagi oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan tanlovda loyihamiz eng zo‘r loyiha deb topildi va keyingi bosqichga qabul qilindi.

Loyihamizning keyingi ulkan qadamlaridan biri – O‘zbekiston Respublikasidagi barcha davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalarida onlayn masofaviy ta’lim tizimini takomillashgan usulda joriy etish hisoblanadi. Buning uchun oliy ta’lim muassasalarida studiya tashkil etib, unga 2 nafar IT yo‘nalishi bo‘yicha mutaxassisni ishga joylash yoki volontyor sifatida bu sohani yaxshi biladigan odamni jalb qilish kerak bo‘ladi. Shuningdek, studiyaga professor-o‘qituvchilarni ham jalb qilish, jahon andozalariga mos ravishda tushunarli va sodda tilda yangi videodarsliklar, audiodarsliklar hamda elektron darsliklarni ishlab chiqish lozim. So‘ngra, YouTube platformasida (2,5 mlrd faol foydalanuvchilariga ega bepul ijtimoiy tarmoq) har bir OTMga kanal ochish, tayyorlangan videodarsliklarni muntazam ravishda keng ilm izlanuvchi talaba yoshlar ommasi uchun joylab borish kifoya.

Bu masofaviy ta’lim loyihasining pirovard maqsadi – O‘zbekistonda ta’lim sifatini oshirish, OTMlar o‘rtasida sof raqobatni uyg‘otish, talabalarning o‘zlashtirishini 100 foizga ko‘tarish, xalqni ziyoli qatlamini orttirish va Yangi O‘zbekistonning kelajak avlodlari uchun bepul va sifatli darsliklarni taqdim etishdan iborat. Bir so‘z bilan aytganda, ilm izlanuvchilarni – ijtimoiy holatidan, irqidan, moliyaviy tomonidan va qayerda turganidan qat’iy nazar xohlagancha hech qanday limitlarsiz ilm olishlariga mo‘ljallangan loyihamiz kelajakda yanada keng miqyosda rivojlanadi, degan niyatdamiz.

**Gazetamizning ushbu sonini tayyorlashda ko‘rsatgan yordami va hamkorligi uchun institut rektori Nozimjon To‘ychiboyev, Qurilish muhandisligi kafedrasi mudiri Baxtiyorjon Mirzayev, matbuot kotibi Gulzoda Kamolovaga minnatdorlik bildiramiz.**

СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ

# Цемент заводида энергиятежамкор газ жиҳозлари ўрнатилган



Азиз МАШРАБОВ, “O‘zbekiston bunyodkori” мухбири.

**Сурхондарё вилоятининг Шеробод туманидаги “Олмалиқ кон-металлургия комбинати” акциядорлик жамияти қошида фаолияти йўлга қўйилган цемент заводи воҳада қурилиш саноатини замон талаблари даражасида ривожлантириш, замонавий қурилиш материалларини кўпайтиришда муҳим аҳамият касб этмоқда.**



Технологик қисми туркиялик ҳамкорлар “Dal Teknik Makina Ticaret ve Sanayi A.Ş.” фирмаси томонидан амалга оширилган мазкур заводнинг Шеробод туманида бунёд этилишининг ўзига хос сабаби бор. Яъни, 708 миллион тонна цемент хомашёси, шу жумладан, 530 миллион тонна оҳактош ва 178 миллион тонна тупроқ (глина) мавжуд энг йирик конлар айнан шу ҳудудда жойлашган.

Қиймати 212,8 миллион АҚШ доллари бўлган ушбу инвестиция лойиҳасининг амалга оширилиши натижасида бу ерда йилига 1,5 миллион тонна юқори сифатли портландцемент ишлаб чиқариш йўлга қўйилди. Шу билан бирга, 1200 нафар аҳоли доимий иш билан таъминланди. Ушбу корхонада табиий газнинг ўрни жуда муҳим ҳисобланади.

– Маҳсулотни тайёр ҳолга келтириш учун албатта, биз табиий газдан фойдаланамиз, – деди Шеробод цемент заводи бош муҳандиси Темур Холназаров. – Агар бир кун мобайнида табиий газ ўчиб қолгудай бўлса, корхонамиз 208 тонна зарар кўради ва бу ходимлар маошига ҳам таъсир қилиши мумкин. Корхонамизда табиий газни тежаш учун замонавий энергиятежамкор газ жиҳозлари ўрнатилган бўлиб, биз табиий газнинг ҳар бир кубини тежаб ишлатамиз. Чунки табиий газнинг қанчалик машаққат билан истеъмолчиларга етказиб берилиши бизга маълум.

Бу қандай амалга оширилади?

Энг аввало, геологлар қатламдаги табиий газ ҳажмларини ўрганади. Геофизиклар эса қатламнинг қанақа эканлигини, қайси чуқурликда табиий газ мавжудлигини аниқлайди. Шундан сўнг табиий газ ва нефть маҳсулотлари бурғилаш йўли билан олинади. Шу тариқа конлардан олинган газ ва нефть маҳсулотлари қайта ишлаш учун заводларга етказиб берилади. У ерда бу маҳсулотлар қайта ишланиб, транспортировка қилинади ҳамда истеъмолчиларга етказилади.

Бугунги кунда истеъмолчиларга бехатар ва бир маромда табиий газ етказиб бериш учун 100 минглаб соҳа ходимлари жонбозлик кўрсатиб, жавлон уриб меҳнат қилмоқда. Шундай экан, ушбу соҳа ходимларининг машаққатли меҳнатларини инобатга олишимиз ва қадрига етган ҳолда табиий газни тежаб, келажак авлодга қолдириш учун ҳаракат қилишимиз лозим.

БУХОРО ВИЛОЯТИ

# КИЧИК САНОАТ ЗОНАЛАРИДА 238 ТА ИШ ЎРНИ ЯРАТИЛМОҚДА

Учқун ТОЖИЕВ, журналист.

**Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 21 сентябрдаги “2019-2023 йилларда Бухоро вилоятини комплекс ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорига асосан биргина Ромитан туманида 3 та, аниқроғи, Алишер Навоий, Алишер Навоий-2, “Афросиёб” ва мебелчиликка ихтисослаштирилган кичик саноат зоналарини ташкил этишга жадал киришилган.**



Мазкур кичик саноат зоналарида умумий қиймати 43,8 миллиард сўмга тенг бўлган 24 та лойиҳани амалга ошириш ишларига киришилган. Шундан, 35,3 миллиард сўми ташаббускор тадбиркорларнинг ўз маблағи, 8,5 миллиард сўми эса тижорат банклари кредит улушидир. Аҳамиятлиси, бу лойиҳалар тўла қувватда иш бошлаши натижасида 238 та янги иш ўрни яратиш мақсад қилинган.

Вилоят ҳокимининг ўринбосари Ризо Асадов ушбу кичик саноат зоналарида амалга оширилаётган лойиҳаларни жадаллаштириш, бу борада ташаббускор бизнес вакиллари зиммасидаги муҳандислик-коммуникация тармоқлари ва бошқа йўналишдаги муаммоларни ўрганиш мақсадида ҳудудда бўлди.

Туманнинг Алишер Навоий номли маҳалла фуқаролар йиғини ҳудудида 2,2 гектар ер майдонида “Ёшлар саноат ва тадбиркорлик зонаси” ташкил этилган. Тадбиркорлик зонаси ҳудудида умумий қиймати 26,1 миллиард сўмга тенг жами 33 та тадбиркорлик лойиҳасини амалга ошириш ҳамда 153 та янги иш ўрнини яратиш чора-тадбири кўрилмоқда. Бугунга келиб бу манзилда 33 та лотнинг барчаси аукцион ғолиблари томонидан сотиб олинган бўлиб, дастлабки қурилиш-монтаж ва цехларни жиҳозлаш ишлари олиб борилмоқда. Шунингдек, бир нечта лойиҳада қурилиш ишлари якуний босқичда бўлиб, фаолият бошлаш арафасида. Илғор лойиҳалар қаторида “Аҳад Файз чорваси” МЧЖ томонидан замонавий мебель маҳсулотлари ишлаб чиқариш лойиҳаси рўёбга чиқарилган. Ўтган йилнинг дастлабки ярмида ишга туширилган, умумий қиймати 1 миллиард 300 миллион сўм бўлган, йилига 800 миллиард сўмлик замонавий андозадаги мебель маҳсулотлари ишлаб чиқариш қувватига эга мазкур корхонада 7 нафар ишчи-мутахассис бандлиги таъминланган.

Шунингдек, МФЙда мебелсозликни ривожлантириш мақсадида ташкил этилган иккинчи кичик саноат зонаси учун эса 1,3 гектар ер майдони ажратилган бўлиб, маҳаллий тадбиркорлар учун лотлар “E-IJRO AUKSION” майдончасида савдога чиқарилган. Бунда масъулияти чекланган жамияти шаклидаги “Ромитан элга хизмат”, “Sultan mebel haus” ва “Megawash Lyuks” каби корхоналар ишлаб чиқариш фаолиятини ривожлантирмоқда. Қолаверса, харидор талаби асосида мебель ишлаб чиқаришга ихтисослашган “Mufarrah Investmen” МЧЖ ҳамда ёғочдан тайёрланадиган маҳсулотлар, ёғоч ўймакорлиги билан шуғулланадиган якка тартибдаги тадбиркор “Boboyeva Zarifa Fayzullayevna” корхоналари ҳам ўз фаолиятини жорий йил иккинчи чорагида бошлаши кутилмоқда. Айни кунда жиҳозлаш ишлари бораётган “Mufarrah Investmen” МЧЖ лойиҳаси умумий қиймати 5 миллиард сўмга тенг бўлиб, тўлиқ қувватда ишга туширилиши натижасида ундаги иш ўрнини 56 нафарга етказиш мақсад қилинган.

Ҳудудда якка тартибдаги тадбиркор Зарифа Бобоева эса ўз цехида ҳадемай 8 кишини иш билан таъминлайди. Худди шундай, мазкур кичик саноат зонасида “Blok Band”, “Miron Mirfayz Xumoyun” ҳамда “Pomengranat building” МЧЖлари ҳам ўз фаолиятини жонлантириш, маҳсулдорликни ошириш ва иш ўрнини кўпайтириш ҳаракатида. Айтиш мумкинки, 2023 йил якунига биноан, Алишер Навоий номли МФЙдаги бу манзилда 9,1 миллиард сўмликдан ортиқ 4 та лойиҳа амалга оширилиб, 60 га яқин иш ўрни яратилган.

Ҳоким ўринбосари бошчилигида бу ерда кичик саноат зоналаридаги лойиҳаларни амалга ошириш, паст қувватда ишлаётган корхоналар фаолиятини ривожлантириш, уларни зарур муҳандислик-коммуникация тармоқлари билан таъминлашга дахлдор жиҳатлар муҳокама қилиниб, зарур чора-тадбирлар белгиланди.

# Қоровулбозорда янги цехлар ишга тушди

**Бухоро вилоятининг Қоровулбозор туманида тадбиркорлик ташаббуслари қўллаб-қувватланиб, кичик корхона ва цехлар кўринишида ишлаб чиқариш қувватлари оширилмоқда. Яқинда “Навбаҳор” МФЙда “RBS Sentr” масъулияти чекланган жамияти ўз фаолиятини йўлга қўйган бўлиб, унда бозор талабини ўрганган ҳолда замонавий стол-стул ишлаб чиқарилмоқда.**



Ёш ишбилармон Асадбек Ражабов бошчилигидаги бу цехда ҳозирда 10 нафарга яқин йигит меҳнат қилаётган бўлиб, уларнинг ойлик маоши 3,5 миллион сўм атрофида.

– Мазкур цехни ишга тушириш учун қиймати 300 миллион сўмга тенг лойиҳани ишлаб чиқиб, рўёбга чиқардик, – деди цех иш юритувчиси Баҳодир Ражабов. – Ҳозирда бунда 20 турдан ортиқ дизайндаги стол-стул ишлаб чиқариб, буюртмачиларга етказиб беряпмиз. Асосийси, маҳсулотимизга ички бозорда талаб юқорилиги боис, кунига 100 донадан ошириб стол-стуллар ясаб, қўшни Қашқадарё ва Хоразм вилоятларидаги харидорларга ҳам сотаяпмиз. Яқин келажакда фаолиятимизни янада кенгайтириб, юмшоқ мебель ишлаб чиқаришни ҳам йўлга қўйиш ҳаракатидамиз.

Юртимизда тадбиркорлик ташаббусларига кенг ўрин берилгани самараси ўлароқ, четка туманда табиий тош ва майдаланган қумлардан ички ва ташқи деворлар учун декоратив безак воситалари (гибкий камен) ишлаб чиқариш ҳам йўлга қўйилгани эътиборга лойиқ. Айнан Навбаҳор маҳалласида истиқомат қилувчи Жамшид Иброҳимов худди шундай бизнес фаолиятини бошлаган. Табиий тош ва майдаланган қумлардан ички ва ташқи деворлар учун декоратив безак воситалари ишлаб чиқариш лойиҳаси тадбиркор томонидан атиги 30 миллион сўм атрофидаги сармоя билан бошланган.

Ишини ривожлантириб, буюртмалар сифатига эътибор қаратган тадбиркор бугунга келиб 18 нафар тенгдошини ҳам иш билан банд қилишга эришган ва уларга ўртача 4 миллион сўмдан ойлик маош тайинланган. Ўзининг айтишича, ишлаб чиқарилаётган маҳсулотнинг шўр ва намга чидамлилиги, яроқлилик муддати ва 20 йиллик кафолати декоратив безакли тошлар харидорлигини оширмоқда.

ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ

# Кўкдала туманида Италия компаниясининг филиали

Шуҳрат НОРМУРОДОВ,
“O‘zbekiston bunyodkori” мухбири.

**Италиянинг “Cotonella” бренди томонидан туманда иш бошлаган лойиҳанинг 1-босқичида 1,2 млн евро инвестиция жалб қилинди ва йилига 1 млн дона тайёр аёллар кийим-кечаклари ишлаб чиқариш йўлга қўйилди.**



Мазкур корхонада бугунги кунда 80 нафар янги иш ўрни яратилди. Ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар экспортга йўналтирилган бўлиб, ўтган даврда корхона томонидан 185 минг долларлик тайёр тикув-трикотаж маҳсулотлари Европага экспорт қилинган.

Филиалнинг тантанали очилиши маросимида вилоят ҳокими Муротжон Азимов ҳам иштирок этиб, Европадаги таниқли компанияларнинг Қашқадарё вилоятида ишлаб чиқариш корхоналари очиши катта ютуқ эканини таъкидлади. Маълумот учун, “Cotonella” корхонаси – Қашқадарё вилоятида Италия капитали иштирокидаги дастлабки корхона ҳисобланади.

# Чироқчининг олис қишлоғида оилавий поликлиника

**Чироқчи туманидаги 33 мингдан ортиқ аҳолиси бўлган Тарағай ҳудуди туман марказидан 50 километр узоқликда жойлашган. Ҳудудда 4 та маҳаллага бирлашган ўндан зиёд қишлоқ мавжуд бўлиб, шу қишлоқ ва маҳаллалар аҳолисига хизмат қиладиган “Тарағай” оилавий поликлиникасининг очилиш маросими бўлиб ўтди.**




Айни дамда ушбу шифо масканида 50 нафардан зиёд тиббиёт ходими фаолият кўрсатмоқда. Кундузги стационар даволаниш учун 25 та ўрин аҳоли хизматида.

– Соҳибқирон Амир Темур бобомизнинг отаси номи билан боғлиқ қадимий тарихга эга қишлоғимизнинг табиати жуда гўзал, – деди қишлоқ фаоли Собир Шарипов. – Шу сабаб, бугун Тарағай қишлоғимиз туризм қишлоғи мақомини олган бўлиб, кейинги пайтларда унинг иқтисодий-ижтимоий ҳолати ўзгариб бормоқда. Янги йўллар, инфраструктура тизимлари яратилмоқда ва бундан мамнунмиз.

Мазкур оилавий поликлиника ишга тушиши билан, барча унга яқин жойлашган қишлоқлар аҳолисининг узоқ йиллик орзулари ушалди. Энди стационар даволаниш учун туман марказига қатнашнинг ҳожати йўқ. Улар учун шу ернинг ўзида аҳолига сифатли тиббий хизмат кўрсатиш учун барча шароит ва имконият яратилди. Тиббиёт масканида ҳозирча 5 нафар олий маълумотли шифокор аҳолига хизмат қилиб келмоқда ва келгусида уларнинг сони янада кўпайиши кўзда тутилган.

# Деҳқонободда тез тиббий ёрдам станцияси биноси

**Юртбошимизнинг Қашқадарёда тиббиёт соҳасини янада ривожлантириш юзасидан берган режа-топшириғи доирасида Деҳқонобод туманида тез тиббий ёрдам сифатини янада яхшилаш, соҳа ходимларига етарлича қулайлик ва шароитлар яратиб бериш мақсадида туман “Тез тиббий ёрдам станцияси”нинг янги биноси қуриб фойдаланишга топширилди.**

Бинонинг очилиш маросимида туман сектор раҳбарлари билан биргаликда вилоят соғлиқни сақлаш бошқармаси раҳбарияти ҳам иштирок этиб, деҳқонободликларни янги ва замонавий бино билан қутлашди. Шу куни Президентимизнинг деҳқонободликларга яна бир совғаси сифатида, 2 та янги тез тиббий ёрдам машинаси ҳам шифокорларга топширилди.

# Замонавий боғча иш бошлади

**Шаҳрисабз туманида жойлашган Полмон маҳалласида маҳаллий тадбиркор томонидан сарфланган 2,5 миллиард сўмдан зиёд маблағ эвазига замонавий типда жиҳозланган оилавий нодавлат мактабгача таълим ташкилоти ишга тушиши билан 120 нафар болажон замонавий билим ва фаол интеллектуал тизим асосида тарбияланадиган бўлди.**




Мазкур мактабгача таълим ташкилотининг тантанали очилиш маросимида вилоят мактабгача таълим бошқармаси масъуллари, туман ҳокимлиги вакиллари, қишлоқ фаоллари иштирок этди. Маълумот ўрнида, ушбу муассасанинг фаолияти бошланиши билан туманда оилавий нодавлат мактабгача таълим ташкилотлари сони 229 тага етди.

Маълумот ўрнида ҳозирги кунда Шаҳрисабз туманида 45 та давлат ҳамда 8 та давлат-хусусий шериклик шаклидаги мактабгача таълим ташкилотлари мавжуд. Шунингдек, тумандаги 3-7 ёшдаги болаларнинг 68 фоизи мактабгача таълим билан қамраб олинган.

ХОРАЗМ ВИЛОЯТИ

# БУНЁДКОРЛИКЛАР ВИЛОЯТ ҲОКИМИ НАЗОРАТИДА

**Болтабой МАТҚУРБОНОВ,**
"Oʻzbekiston bunyodkori" мухбири.

**Хонқа туманидаги Ёш куч маҳалласи ҳудудида бунёд этилаётган "Янги Ўзбекистон" массиви аҳоли учун муносиб турмуш шароитларига эга замонавий шаҳарчага айланиб бормоқда. Лойиҳага кўра, бу ерда 1128 та хонадонга мўлжалланган 46 та кўп қаватли уйлар барпо этилиши режалаштирилган.**



Ўтган 2022-2023 йилларда 448 та хонадонга мўлжалланган 17 та кўп қаватли уй қурилган бўлса, жорий йилда 260 та хонадонга эга 12 та уй фойдаланишга топширилади. Массивда шунингдек, 340 ўринли мактабгача таълим ташкилоти ва 990 ўринли умутаълим мактаби ҳам қад ростлайди.

Яқинда вилоят ҳокими Жўрабек Раҳимов ушбу массивда бўлиб, қурилиш жараёнлари билан танишди ва ишларни жадаллаштириш бўйича топшириқлар берди.



**Бугунги кунда ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш тармоқларида ва аҳоли хонадонларида муқобил энергия манбаларидан фойдаланиш долзарб аҳамият касб этмоқда.**

Шундан келиб чиқиб, Хонқа туманидаги "Тўтижон Бекметова" фермер хўжалигида сув насосларини қуёш панелларидан олинадиган энергия орқали ишлатиш тизими йўлга қўйилди.

Фермернинг умумий ер майдони 106 гектар бўлиб, далаларни суғориш учун 3 та сув насосидан фойдаланилади. Дала бошига 75 кВТ қувватга эга қуёш панеллари ўрнатилиши натижасида кунига 600 кВТ электр энергияси учун сарфланадиган маблағ иқтисод қилиняпти. Вилоят ҳокими Жўрабек Раҳимов фермер Камолиддин Юсуповнинг бу тажрибасини эътироф этиб, мазкур янгиликни бошқа фермер хўжаликларида ҳам кенг татбиқ этишни тавсия қилди.

**Вилоят ҳокими Жўрабек Раҳимов Хонқа туманидаги Обод маҳалласи ҳудудида барпо этилаётган "Хонқа" соғломлаштириш маркази қурилишини бориб кўрди. 3,5 гектар майдонни эгаллаган ушбу марказ қурилишининг лойиҳа қиймати 75 млрд сўмни ташкил қилиб, келгусида аҳолига 4 турдаги тиббий соғломлаштириш хизматлари кўрсатилади.**



Вилоят ҳокими шунингдек, туманда ташкил қилинган мебелчилик кичик саноат зонасида амалга оширилаётган лойиҳалар ва "Хонқа биллур салт" хусусий корхонасида ишга тушириладиган туз ишлаб чиқариш линияси билан ҳам танишди.

СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ

# "Ёғочли Сардоба" туристик мажмуа лойиҳаси ишлаб чиқилди

**Беҳзод АҲМАДКУЛОВ,** "Oʻzbekiston bunyodkori" мухбири.

**Сардоба туманида жойлашган "Ёғочли сардоба" қачонлардир сайёҳларнинг севимли масканларидан бири сифатида гавжум маскан бўлган. Бироқ мазкур тарихий обида бир муддат эътибордан четда қолди. Табиийки, унга нисбатан одамларнинг қизиқиши ҳам камайди. Вилоят ҳокими бу масалани алоҳида эътиборга олиб, масъуллар олдига ёдгорликнинг меъморий қиёфасини сақлаб қолиш, унинг атрофини туристик масканга айлантириш вазифасини қўйган эди.**



Шунга мувофиқ, "Ёғочли сардоба" яхлит туристик мажмуаси лойиҳаси ишлаб чиқилди. Тақдимотда вилоят ҳокимига бу ҳақда маълумот берилди. Лойиҳага мувофиқ, М-39 автомагистраль йўли ёқасида қатор хизмат кўрсатиш ва савдо комплекслари, овқатланиш масканлари, санитария-гигиена шохобчалари, автомобилларга ёқилғи қуйиш станцияси, меҳмонхона ва автотураргоҳлар қурилади. Шунингдек, тарихий ёдгорликка ёндош бўлган Файзлиобод маҳалласи инфратузилмаси тубдан яхшиланади. Яшил майдон ва сайлгоҳлар барпо этилади.

Вилоят ҳокими тақдимот давомида ҳудудда табиий шарт-шароитлар мавжудлиги ва айни жиҳатларни инобатга олиб, бугунги кунда туризмни туманнинг драйвер соҳаларидан бирига айлантириш мумкинлигини таъкидлади. Мавжуд лойиҳани янада такомиллаштириш, биноларни қуришда миллийлик, урф-одат ва анъаналаримизга устуворлик бериш, хорижлик сайёҳлар учун жозибадор лойиҳаларни кўпайтириш бўйича таклифларини берди.

ТОШКЕНТ ВИЛОЯТИ

# Янги ижтимоий объектлар иш бошлади

**Чирчиқ шаҳридаги "Янги Ўзбекистон" массивида бунёд этилган 5-сон оилавий поликлиника фойдаланишга топширилди. Шу муносабат билан ташкил этилган очилиш маросимида Тошкент вилоят ҳокими Зойир Мирзаев, вилоят соғлиқни сақлаш бошқармаси масъуллари, давлат ва жамоат ташкилотлари вакиллари, нуронийлар, тиббиёт фахрийлари иштирок этди.**



Уч қаватли замонавий шифо маскани "Шоҳруҳ қурилиш дизайн" МЧЖ томонидан бунёд этилди. Қурилиш-монтаж ишларига 14,168 миллиард сўм миқдорда маблағ сарфланди. Мазкур мажмуа бир вақтда 250 нафар беморга хизмат кўрсатишга мўлжалланган. Хусусан, Чирчиқдаги 8 та маҳалланинг 25 минг нафардан зиёд аҳолиси энди бу ерга келиши мумкин. Поликлиникада 14 нафар малакали шифокор ва 52 нафар ўрта тиббиёт ходими фаолият олиб боради.

Тадбир иштирокчилари бинода яратилган шароитлар билан танишди. Мутахассислар таъкидлашича, ҳозир Тошкент вилоятида оилавий поликлиникалар 94 тага етди. Шу билан бирга, жорий йилда яна 118 та маҳаллада тиббиёт пунктлари ташкил этилиб, 715 минг аҳоли тиббий хизмат билан қамраб олинди. Тиббиёт бригадалари томонидан универсал прогрессив патронаж тизими ҳам йўлга қўйилди.

Маълумки, жорий йилнинг 4 апрель куни Тошкент вилояти ҳокими Чирчиқ шаҳридаги Тинчлик маҳалласида фуқаролар билан ўтказган очиқ мулоқотида мазкур манзилда "Маънавият хиёбони" ташкил қилиш бўйича мутасаддиларга кўрсатмалар берган эди. Ҳудудда мазкур зиё маскани фаолият бошлади. Хиёбон қурилиши учун 1 миллиард 400 миллион сўм маблағ ажратилди, деб хабар қилади ЎзА мухбири Абдулазиз Мусаев.

Эндиликда бу ерда аҳоли дам олиши ва маданий ҳордиқ чиқариши учун турли кўнгилочар тадбирлар, маънавий-маърифий кечалар ўтказилади.

САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ

# Ибратга сазовор ишлар

**Ҳамза ШУКУРОВ,** "Oʻzbekiston bunyodkori" мухбири.

**Самарқанд вилоятининг шаҳар ва туманларида аҳолини кўп қаватли уй-жой билан таъминлаш, одамларга коммунал хизмат кўрсатишни яхшилаш бўйича ибратга сазовор ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, Каттақўрғон шаҳрида бу борада рўёбга чиқарилаётган юмушлар аҳолини қувонтирмоқда.**

– Халқимизга сифатли хизмат кўрсатишни даврнинг ўзи тақозо этмоқда, – деди шаҳар қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги бўлими бошлиғи Ш. Сайдиев. – Ҳудудимизда 251 та кўп қаватли турар жой мавжуд бўлиб, улар еттита бошқарув сервис компаниясига бириктирилган. Жорий йилда БСКларнинг янада самарали фаолият юритиши учун давлатимиз томонидан қатор имтиёзлар берилди. Бу эса ўз навбатида уларнинг моддий-техник базасини мустаҳкамлаб, хизмат сифатини оширишда муҳим ўрин тутмоқда.

Хусусан, қисқа фурсатда барча уйларнинг том қисми мукаммал таъмирланиб, 53 та уйнинг кириш йўлакларидаги электр тақсимловчи шитлар алмаштирилди ҳамда 16 та уйнинг ирригация тизими яхшиланди. Ертўлалардаги оқова сув қувурлари алмаштирилиб, 5 та уй олдидаги болалар майдончлари таъмирланди. Иссиқлик таъминоти бўйича 2 контурли қозонхоналар билан жиҳозланган уйлар сони бугун 14 тага етиб, 888 та хонадонга иссиқлик таъминоти етказиб берилмоқда. Бунда "Миёнкўл", "Қўрғон", "Қораева" ва "Мароқанд старт бошқарув – 2022" МЧЖларининг ишчи-хизматчилари бошқаларга намуна бўлмоқда.

Шаҳардаги "Дўстлик" МФЙ ҳудудида жойлашган "Қўрғон сервис бошқарув" БСК 3225 нафар аҳолини қамраб олган. Жамият аъзолари ҳар қандай вазифани ўз вақтида ва сифатли уддалаб, эл ишончига сазовор бўлмоқда. Айни пайтда БСК ишчи-хизматчилари ва маҳалла фаоллари ҳамкорликда кўчаларни ободонлаштириш, янги канализация тармоғини тортиш юзасидан зарур ишларни бажаришмоқда.

– Компаниямизда 13 нафар ходим меҳнат қилаяпти, – деди компания раҳбари Тўлқин Раҳмонов. – Уларнинг саъй-ҳаракати билан аҳолининг кундалик эҳтиёжлари зудлик билан қондириляпти. Ҳудуддаги 2 та МТТ ва 2 та мактабга ҳам хизмат кўрсатиляпти. Бунинг учун етарли шароитлар яратилганлиги ютуқларга йўл очаётир.

# Бошқармада кенгайтирилган йиғилиш ўтказилди

**Сирдарё вилояти ҳокими Акмалжон Маҳмудалиев ва Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги вазирлигининг Инсон ресурсларини ривожлантириш ва бошқариш бўлими бошлиғи Абдуғулом Мирзаев иштирокида вилоят Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги бош бошқармасида кенгайтирилган йиғилиш ўтказилди.**



Тадбирда вилоятда қурилиш соҳасида йўл қўйилаётган камчиликлар хусусида тўхталиб ўтилди. Жумладан, соҳада ишчи-ходимларнинг малакасини ошириш, мутахассисликка ўқитиш, қурилиш ишларида шаҳарсозлик норма ва қоидаларига амал қилинишини назорат қилиш лозимлиги таъкидланди.

Йиғилиш сўнгида вилоят ҳокими Сирдарё вилояти Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги бош бошқармасига Дилшод Рўзматовни тайинланганини таъкидлаб, унинг ишларига муваффақият ва омад тилади. Фаолият самарадорлигини ошириш юзасидан бошқарманинг раҳбар ва ходимларига тегишли кўрсатма ҳамда топшириқлар берилди.

# Ноқонуний қурилмалар ўрганилмоқда

**Сирдарё вилояти Қурилиш ва уй-жой коммунал хўжалиги бош бошқармаси ва Гулистон шаҳар бўлими биргаликда тадбиркорлар томонидан ўзбошимчалик билан ноқонуний равишда биноларга ўзгартириш киритиш, қўшимча бинолар қуриш ҳамда рухсатномасиз енгил типдаги қурилмаларни ўрнатиш каби ҳолатларни ўрганиш мақсадида Гулистон шаҳридаги "Янги ҳаёт" МФЙ Янги бозор ҳудуди кўздан кечирилди.**



Ўрганиш жараёнида 20 дан зиёд шаҳарсозлик нормалари ва қоидаларига зид равишда тадбиркорлар томонидан қуриб олинган ёки ўрнатилган қурилмалар аниқланди. Жумладан, кўп қаватли уйларга қўшимча қурилмалар ўрнатилганлиги, рухсатномаси мавжуд бўлмаган енгил типдаги қурилмаларни ўрнатиш ва кўп қаватли уйнинг 1-қавати ички қисмларига тадбиркор томонидан ўзбошимчалик билан ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш ҳолатлари аниқланди. Мазкур ҳолатлар бўйича тадбиркорларга огоҳлантириш хатлари берилди.

Ушбу огоҳлантириш хатларида тадбиркор томонидан ўзбошимчалик билан зид равишда қурилган ёки ўрнатиб олинган объектларни 15 кун муддат ичида бузиб ташланиши кераклиги кўрсатиб ўтилган.

Ҳозирда рейд тадбирлари давом этмоқда.

АНДИЖОН ВИЛОЯТИ

# Ер ости йўли ҳаракат хавфсизлигини таъминлайди

**Зиё СИРОЖ,** "Oʻzbekiston bunyodkori" мухбири.

**Хўжаобод тумани республикамизнинг энг чекка ҳудудларидан бири ҳисобланади. Унинг марказидан ўтувчи халқаро аҳамиятдаги автомобиль йўли мамлакатимизни Қирғизистон Республикаси билан боғлаб туради. Шунинг учун бу ерда ҳамиша гавжумлик ҳукмрон.**



Ҳисоб-китоблар шуни кўрсатмоқдаки, туман марказидаги йўлдан бир кунда ўртача 35 мингта автомобиль ва 80 минг нафар пиёда ҳаракатланади. Тумандаги "Деҳқон бозори" ҳам айнан шу йўл ёқасида жойлашгани боис, ҳафтанинг айрим кунлари юқоридаги кўрсаткич бир неча маротаба ортади. Бу эса, табиийки, тирбандликни вужудга келтирмоқда. Шу боис, аҳолига қулайлик яратиш мақсадида ер ости йўли барпо этишга киришилди.

– "Деҳқон бозори"дан харид қилган куним йўлнинг у томонидан бу томонига ўтишга кўп қийналаман, – деди меҳнат фахрийси Одинахон Сайрамова. – Йўл панжара билан тўсилган, аксига олиб, пиёдалар йўлакчаси билан узоқда жойлашган. Йўловчиларга хизмат кўрсатувчи транспорт воситалари ҳам айнан шу йўл ёқасида тўхтаб тургани боис қадам босишга жой топа олмай қоласиз. Шу боис, ер ости йўли қурилиши айни муддао бўлди. Бу лойиҳа ишга туширилса, катта қулайлик яратилган бўлади.

Айни пайтда узунлиги 48, эни 4 метрдан иборат йўл ости қурилиши ишлари бошлаб юборилди. Бунинг учун "Ўзйўлкўприк" кластери Андижон филиалининг 20 нафар ишчиси ва 10 дан зиёд техник воситалари самарали меҳнат қилмоқда.

– Ҳозирда бетон қувурларни монтаж қилиш билан бир қаторда унга ёндош йўлни асфальтлаш ишлари олиб борилялти, – деди филиал раҳбарининг ўринбосари Абдуханон Мирзаев. – Лойиҳа ишлари шу йилнинг якунига қадар фойдаланишга топширилиши режалаштирилган.

Умумий қиймати 1 миллиард 750 миллион сўмга тенг ушбу лойиҳа автомобиллар тирбандлигининг олдини олиш ва ҳаракат хавфсизлигини таъминлашга хизмат қилади.

O‘ZBEKISTON BUNYODKORI
СТРОИТЕЛЬ УЗБЕКИСТАНА
№40-41 (793-794) 2024 йил 17 май

# “Қамаши пахта тозалаш” АЖ

## АКЦИЯДОРЛАРИ ДИҚҚАТИГА!

“Қамаши пахта тозалаш” акциядорлик жамияти акциядорларининг **2023 йил якунлари бўйича йиллик умумий йиғилиши** 2024 йил 5 июнь куни ўтказилади. Умумий йиғилиш соат 11.00 дан бошлаб Қашқадарё вилояти, Қамаши тумани, А. Навоий номидаги МФЙ, Алпомиш кўчаси, 1-уйда жойлашган “Қамаши пахта тозалаш” акциядорлик жамияти маъмурий биносининг мажлислар залида бўлиб ўтади.

Йиғилиш қатнашчиларини рўйхатга олиш соат 10.00 да бошланади.

**Жамиятнинг расмий веб-сайти:** www.qamashipaxta.uz

**Кун тартибидаги масалалар:**

1. Умумий йиғилиш регламенти ва саноқ комиссияси таркибини тасдиқлаш.
2. Жамиятнинг 2023 йил якуни кўрсаткичларининг бажарилиши бўйича жамият бошқаруви раисининг ҳисоботини тасдиқлаш.
3. Жамиятнинг 2023 йил якуни бўйича йиллик бухгалтерия баланси ва молиявий натижаларини тасдиқлаш.
4. Жамият Кузатув кенгашининг 2023 йил якуни бўйича ҳисоботини тасдиқлаш.
5. Жамият ташқи аудиторининг 2023 молия-хўжалик йили якуни бўйича хулосасини тасдиқлаш.
6. Жамиятнинг ўтган йиллар тақсимланмасдан қолган соф фойдасини тақсимлаш.
7. Жамият ижроия органи раҳбари билан тузилган меҳнат шартномасининг муддатини узайтиришни кўриб чиқиш.
8. Жамиятнинг 2024 йил якуни бўйича аудиторлик текширувини ўтказиш учун аудиторлик ташкилоти ва унинг хизматига тўланадиган ҳақнинг энг кўп миқдорини белгилаш.
9. Жамият Кузатув кенгаши аъзоларини қайта сайлаш.
10. “THE KEY TO LUSK EXPORT” МЧЖнинг “Ўзпахтасаноат” АЖни тугатиш Лойиҳа офисига 2024 йил 1 апрелдаги 05-сонли мурожаат хати бўйича Ғузор туманида жойлашган тикувчилик цехи биносини 2 (икки) йил муддатда бўлиб тўлаш шарти билан сотиш масаласини кўриб чиқиш.
11. “Қамаши пахта тозалаш” АЖ томонидан бошқа хўжалик жамиятлари устав капиталига киритилган улушлар бўйича харажатларни, узоқ йиллардан буён ундириш имконияти бўлмаётган корхона балансидаги камомад ва зарар суммаларини, умидсиз дебитор ва кредитор қарздорлик суммаларини ҳисобдан чиқариш ҳамда 2024 молия-хўжалик йил фаолияти давомида корхона харажатларига олиб бориш, бухгалтерия ҳужжатларига тегишли ёзувларни киритиш.

**Жамият акциядорларининг реестри шакллантириладиган сана** – умумий йиғилишни ўтказиш тўғрисида хабардор қилиш учун акциядорлар реестри 2024 йил 14 май ҳолатига ва акциядорлар умумий йиғилишида қатнашиш ҳуқуқига эга жамият акциядорларининг реестри 2024 йил 30 май ҳолатига шакллантирилади.

Акциядорлар ўзлари билан шахсни тасдиқловчи ҳужжат – паспорт ҳамда уларнинг вакиллари Ўзбекистон Республикаси қонунчилигида белгиланган тартибда расмийлаштирилган ишончнома билан келишлари шарт (жисмоний шахслар учун – нотариус томонидан тасдиқланган, юридик шахслар учун – мазкур юридик шахс томонидан берилган).

Акциядорлар йиллик умумий йиғилиш тўғрисидаги маълумотлар билан “Қамаши пахта тозалаш” акциядорлик жамияти маъмурий биносида танишишлари мумкин.

**Акциядорлар қўшимча маълумот олиш учун қуйидаги манзилга мурожаат қилишлари мумкин:** Қашқадарё вилояти, Қамаши тумани, А. Навоий номидаги МФЙ, Алпомиш кўчаси, 1-уй.

**Электрон почта:** qamashipaxtatozalash@umail.uz
**Тел.:** 91-470-34-53, 97-387-98-66.

**“Қамаши пахта тозалаш” АЖ Ижроия органи.**

# “Косон пахта тозалаш” АЖ

## АКЦИЯДОРЛАРИ ДИҚҚАТИГА!

“Косон пахта тозалаш” акциядорлик жамияти акциядорларининг 2023 йил якунлари бўйича йиллик умумий йиғилиши 2024 йил 11 июнь куни ўтказилади. Умумий йиғилиш соат 10.00 дан бошлаб Қашқадарё вилояти, Косон тумани, Қарши–Бухоро йўлида жойлашган “Косон пахта тозалаш” акциядорлик жамияти маъмурий биносининг мажлислар залида бўлиб ўтади.

Йиғилиш қатнашчиларини рўйхатга олиш соат 9.00 да бошланади.

**Жамиятнинг расмий веб-сайти:** www.Koson paxta.uz

**Кун тартибидаги масалалар:**

1. Умумий йиғилиш регламенти ва саноқ комиссияси таркибини тасдиқлаш.
2. Жамиятнинг 2023 йил якуни бўйича жамият бошқаруви раисининг ҳисоботини тасдиқлаш.
3. Жамиятнинг 2023 йил якуни бўйича йиллик бухгалтерия баланси ва молиявий натижаларини тасдиқлаш.
4. Жамият Кузатув кенгашининг 2023 йил якуни бўйича ҳисоботини тасдиқлаш.
5. Жамият ташқи аудиторининг 2023 молия-хўжалик йил якуни бўйича хулосасини тасдиқлаш.
6. Жамиятнинг эски йиллардан тақсимланмасдан қолган соф фойдасини тақсимлаш.
7. Жамият ижроия органи раҳбари билан тузилган меҳнат шартномасининг муддатини узайтиришни кўриб чиқиш.
8. Жамиятнинг 2024 йил якуни бўйича аудиторлик текширувини ўтказиш учун аудиторлик ташкилоти ва унинг хизматига тўланадиган ҳақнинг энг кўп миқдорини белгилаш.
9. Жамият Кузатув кенгаши аъзоларини қайта сайлаш.
